جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 11-oktyabr
№ 42(42)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

IBRAT DOMLANING IBRATI

“...Ibrat domlaning o‘g‘li Rotibxonning 1959-yil 28-mayda O‘zbekiston SSR Oliy Sovetiga yo‘llagan arizasini keltiramiz: *“Mening otam, “Ibrat”, “Anisiy” taxallusi bilan asarlar yozgan progressiv olim Is’hoq Junaydullayev 1862-yilda To‘raqo‘rg‘onda o‘qimishli xonadonda tug‘ilib, yoshlik davrida To‘raqo‘rg‘on, Namangan va Buxoroda bilim olgan. O‘z hayotida bilim qidirgan otam Rossiyaning ko‘p shaharlarida, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Hindiston hamda Xitoy davlatlarida bo‘lgan...”*



(7-sahifada o‘qing).

MAXTUMQULI FIROG‘IY TAVALLUDINING 300 YILLIGI



ZIYOSI BIR O‘ZBEK BILAN TURKMANNING

O‘zbek-turkman do‘stligi ildizi asrlar qa’riga borib tutashadi. Azaldan yelkadosh bo‘lib yashab kelgan bu ikki millatning to‘y va bayramlari, ma’raka-marosimlari ham mushtarak edi. Markaziy Osiyoda ezgu ishlar bunyodkorligida ham, tashvishli kunlarda ham o‘zbeklar va turkmanlar bir-biriga madadkor bo‘lib kelganlar.

Tarix zarvaraqlaridan bunga istagancha misollar keltirish mumkin. Balki bu azaliy do‘stlik “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar har ikkala millat baxshilari tomonidan sevib kuylana boshlagan pallada yanada chambarchas tutasha boshlagandir. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk” asarini insho qilgan chog‘larda yanada mushtaraklashgandir balki. O‘zbek-turkman birodarligi Abulg‘ozi Bahodirxon “Shajarayi tarokima” asarini bitgan chog‘da avj nuqtasiga yetgandir ehtimol.

E’tiborli jihati shundaki, hayotning har qanday sinovli kunlarida ham ushbu mustahkam do‘stlik va birodarlikka hech kim raxna sololmagan. Bu ona zaminimizga g‘araz niyatli g‘animlar ko‘z tikkan paytda o‘zbek va turkman xalqi bir tan, bir jon bo‘lib, birgalikda ozodlik va mustaqillik uchun kurashganini faxr bilan e’tirof qilish mumkin.

(Davomi 4-sahifada).

NIGOH

ONA YURTIN SEVMAGAN CHIN IJODKOR BO‘LOLMAS

O‘zbekiston xalq rassomi Javlon Umarbekov bilan suhbat



– Hurmatli Javlon aka, avvalo, qimmatli vaqtingizni ayamay, intervyuga rozi bo‘lganingiz uchun katta rahmat. Mana, siz bilan ijodiy ustaxonangizda suhbatlashyapmiz. Adashmasam, tasviriy san’at muxlislariga olam-olam zavq bag‘ishlayotgan eng go‘zal asarlaringiz aynan mana shu maskanda yaratilgan. Shu topda ko‘nglimda oldindan rejalashtirilmagan bir savol paydo bo‘ldi: xo‘sh, siz uchun ustaxona nima?

– Ustaxonam – hayotdagi turli tashvish va muammolarni unutib, qalbim xotirjam bo‘ladigan maskan. Aslida ijodxona kim uchundir shunchaki kelib-ketadigan, tartibsiz bir joy bo‘lsa, kimlargadir haqiqiy ilhom bag‘ishlaydigan, yana kimlargadir dam oladigan, ba’zilarga faqat ishlash uchungina xizmat qiladigan makon bo‘lishi mumkin. Bu yer go‘yo oshxonaga o‘xshaydi. Ijodkor oshpazday kuyib-pishib harakat qilib, “taom tayyorlaydi”. U ba’zan tagiga oladi yo lanj bo‘lib qoladi yoki tuz-totig‘i mazali bo‘lib, hammaga manzur bo‘ladi. Bu joy – mening ikkinchi uyim. Men uchun bu ustaxona sokinlik bilan ilhom beradigan, ko‘ngilni xotirjam tutadigan go‘shadir. Ko‘pincha mendan: “Sizga ilhom qanday keladi?” deb so‘rashadi. Aslida menga ilhom kelmaydi. U hamisha menda yashaydi, har doim yuragimda bor. Faqat ijod qilish uchun vaqt, muhit, xohish topishim kerak. Bugungi zamonda kundalik tashvishlardan qochib, xotirjam bo‘lib, fikrni jamlash qiyin. Bu yerda esa shunday tansiq imkon bor. Men tashqaridagi har qanday ma’lumotdan uzilib, musiqa tinglab ijod qilaman. Mana, jim quloq tutib ko‘ring. Nimani eshityapsiz? Jimjitlik. Mana shu ijodkor uchun haqiqiy huzur. Tabiatning ovozi – daraxt barglarining shitirlashi, shamolning ohista esishi, yomg‘irning shitir-shitiridan bo‘lak shovqin yo‘q. Mana shu mening ijodxonam, mendagi yaratuvchilikni uyg‘otuvchi sehrli oshiyon...

(Davomi 2-sahifada).

SIDQIY XONDAYLIQIY TAVALLUDINING 140 YILLIGI

JONIM VATAN, TANIM VATAN, KO‘ZIM VATAN

yoxud bir tatabbu’ tafsiloti



Ma’rifatparvar shoir Sidqiy Xondayliqiy domlaning “Vatan nadir, tuqqon yerim, turg‘on yerim” satri bilan boshlanadigan ushbu g‘azalini birinchi bor o‘qishimdayoq, menga manzur kelib, xotiramga jo bo‘lganini aytib o‘tmoq joiz. Ilk taassurot shuki, qadrdon va tug‘ishgan og‘am bilan ko‘rishganday, ancha vaqtgacha shod va masrur holatda, jozib misralarni takrorlab yurdim.

G‘azaldagi *“Ot-eshakda o‘rdan-qirdan bug‘doy tashib, O‘roq bilan xor-u xasin o‘rg‘on yerim”* satrlari bolalik pallalarimizni, “enagamiz tunda oy-u kunduzi quyosh” (A.Oripov iborasi) bo‘lgan beg‘ubor va bearmon damlarni yodga solar, ravon ohangi-yu ohangdorligi ham dilga yaqin, sodda va jayddariligi bilan darrov ko‘ngil mulkiga aylandi-qoldi. Shuni ham aytish kerakki, g‘azaldan non va bug‘doy isi, bug‘doypoyalar-u, dasht-u adirlar nafasi, bir so‘z bilan aytganda, Vatan isi gupurib-ufurib turardi. Bu tansiq islar va tuyg‘ular menga juda aziz va qadrdon, bolaligimizdan onam tog‘dagi qishlog‘ini qo‘msab aytadigan “Vatanimning qirlari-yey, Vatanimning islari” degan sog‘inch to‘la armonli baytlari bilan mening ham umriy sog‘inchlarimga aylanib bo‘lgan edi.

(Davomi 3-sahifada).

YO‘LOVCHIDAN TAKLIF



“YO‘LINGIZ OYDIN, SAFARINGIZ BEXATAR BO‘LSIN!”

...Hamon eslayman: hali istiqlolgacha bo‘lgan davrda Urganch shahrida ish bilan ushlanib qolsam, kechqurun qirq besh chaqirim yo‘l bosib, uyimga yetib olishim ming azob edi. Kechqurun majlisdan so‘ng tasodifiy ulovlarga minib, yarim tunda uyga yetib olgan vaqtlarim ko‘p bo‘lgan. U paytlari jamoat ulovlari shomdan so‘ng harakatini to‘xtatardi. Shahardagi “taksopark” atalmish korxonaga tegishli mashinalar esa kechqurun tumanlarga yurmasdi.

Hozir esa kecha-yu kunduz – yigirma to‘rt soat taksi xizmati sizga muntazir. Shahar-u qishloqlarning “pitak” atalmish joylari nihoyatda mashhur. Yana qo‘ng‘iroq qilsangiz istalgan paytda eshigingiz ostonasida kirakash mashina xizmatga shay turadi.

Bunga odamlarning daromadi oshgani, yurtimizda zamonaviy yengil mashinalar ko‘plab ishlab chiqarilayotgani zamin yaratdi. Axir o‘tgan asrning oxirlarida mamlakatimizda atigi to‘rt yuz ming yengil mashina bo‘lgan, xolos. Hozir ularning soni o‘nlab baravar oshgan.

Shaxsiy yengil mashinasida kirakashlik qilish orqali daromad topib, oila boqish “kasbi” paydo bo‘lganiga hali unchalik ko‘p vaqt bo‘lmadi. Boshlamada yangi tizimda qator to‘siqlar paydo bo‘ldi – transport boshqarmasi xodimlari muntazam nazorat tekshirishlari o‘tkazishib, yo‘lovchi tashish huquqini beruvchi litsenziyasiz kirakashlik qilayotgan odamlarni jarimaga tortishar, eng yomoni, “qonunsiz faoliyat” bilan uchinchi marta qo‘lga tushsa mashinasi davlat foydasiga musodara qilinardi.

(Davomi 5-sahifada).

ANJUMAN

FARG‘ONADA ADABIYOT BAYRAMI



O‘zbek adabiyotiga yirik siymolarni yetishtirib bergan Farg‘onada adabiyot bayrami bo‘lib o‘tdi. Mamlakatning taniqli yozuvchi va shoirlari Qo‘qon shahrida jam bo‘lishdi. Adabiyot bayrami doirasida Jahon otin Uvaysiy, Xo‘janazar Huvaydo, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Furqat ijodi tarannum etilib, Enaxon Siddiqova, Habibullo Saidg‘ani kabi ustoz ijodkorlar xotirlandi.



(Davomi 3-sahifada).

ONA YURTIN SEVMAGAN CHIN IJODKOR BO‘LOLMAS

Boshlanishi 1-sahifada.

– Odatda, yozuvchi va shoirlarning kamolga yetishida adabiyotning, xalq og‘zaki ijodining o‘rni katta bo‘ladi. Yoshligidan she’riy va nasriy asarlarni o‘qib, doston va termalar, ertaklarni tinglab ulg‘aygan bolaning qalbida shu sohaga havas paydo bo‘ladi, asta-sekin unda iste’dod kurtaklari yuz ochadi. Xo‘sh, kishida rassomlikka ishtiyoq qay tariqa paydo bo‘ladi? Uni qo‘liga mo‘yqalam olishga undaydigan kuch nima? Shaxsan sizda bu hol qanday kechgan?

– Aslida rassomlarning shakllanishi ham shoir va yozuvchilarnikiga o‘xshaydi. Xoh hofiz, xoh cholg‘uchi yoki rassom bo‘lsin, hamma ijodkorning mushtarak, o‘xshash jihatlari bor. Har bir san’at ahlining ko‘ngli go‘zallikka oshno bo‘ladi. Masalan, o‘zim bolalik shuurimga muhrlanib qolgan xotiralarimni qog‘ozga tushirgim kelaveradi. Hozir qariyb sakson yoshdaman. Besh yoshimdan buyon rasm chizaman. Asarlarimdagi syujetlar ham asosan bolalikdagi xotiralarimning aksi: bozordagi holatlar, ko‘chalarda to‘lib oqadigan sharqiroq ariqlar, tabiat manzaralari, choyxonada o‘tirgan chollar... Hamma ko‘rgan-bilganlarim, o‘qib-izlanganlarim menda iqtidorni shakllantirgan, surat chizishga ishtiyoq uyg‘otgan bo‘lsa kerak. Bundan tashqari, juda ko‘p kitob o‘qiganman. Kitobdan oladigan huzurni hech narsa berolmaydi, u boshqacha... Ayniqsa, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O‘tkir Hoshimov asarlari suratlarimda o‘zbekona ruhni kuchaytirishga, asarlarimda sharqona jozibani tasvirlashga turtki bo‘lgan.

– Surat mazmunini to‘la ifodalaydigan nom topish qanchalik mushkul? Tasviriy san’at asarining nomi uning g‘oyasi bilan birga tug‘iladimi yoki keyin tanlanadimi?

– Bu jarayon har xil bo‘ladi. Men ba’zida chizadigan asarimga oldindan umumiy bir nom topaman. Misol uchun, “Eski shahar hirgoyilari”. Shu nomning ichida hamma narsa bo‘lishi mumkin: ariqdagi suv, cho‘milayotgan bolalar, sharqona bozor shavqi, aravasini yuvayotgan yigit va hokazo. Ba’zida bir asarimga uchtagacha nom beraman. Ko‘pincha kartinalar birinchi paydo bo‘ladi, keyinroq nomi ham tug‘iladi. Mening ijodimda monumental ponnolar ham bor. Ularga nom tanlash jiddiy jarayon, bu rassomdan chuqur o‘ylashni talab qiladi. Sohibqiron Amir Temurga bag‘ishlangan ikki-uchta asar shular jumlasidan. Masalan, bir asarimning nomi “Tafakkurli inson”. Yo‘q, “Mutafakkir” emas, aynan “Tafakkurli inson”! Bu umumiy nom, lekin undagi ma’noni tomoshabinning o‘zi anglab oladi. Suratda Ibn Sino, Beruniy, Navoiy, Kamoliddin Behzod, Arastu, Leonardo da Vinchi ham bor. Bu umuman, hazrati insonga bag‘ishlangan asar. Har xil asrning ulug‘ insonlarini jamlab, o‘rtada “Haqiqat” (Botichellining “Venera”si) obrazini tasvirlaganman. Aslida hammaning o‘z haqiqati bor. Shuncha buyuk odamlar o‘tib ketdi, ularning haqiqati (asarlari) bizga meros qoldi, xolos.



Rassom chizgan asarni muxlis xuddi u atagan nom bilan qabul qilishi muhim emas. Asosiysi, asar har bir san’atsevarda ayri bir his uyg‘otsin, taassurot qoldirsin. Uni aniq tushunish ham shart emas. Masalan, Pablo Pikassoning asarlari zamiridagi ma’nolarni oddiy odam tushunmasligi mumkin, lekin uning ko‘nglida qandaydir hissiyotlarni uyg‘otib yuboradi. Har bir surat har insonda turlicha taassurot qoldiradi, uning his-tuyg‘usini qo‘zg‘ab, fikr uyg‘otadi. Asosiy maqsad ham shu – fikr va his-tuyg‘ularni uyg‘otish.

– San’at asarining umrboqiyligi nima bilan bog‘liq? Unda aks etgan fikr qatlamining teranligi birlamchimi yoki mahorat bilan chizilgan shakl murakkabligimi?

– Yuqori darajadagi san’atni tushunish uchun odam tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Ya’ni, san’at haqida ma’lumoti bor insongina haqiqiy san’at asarining qadrini anglaydi. Masalan, mashhur rassom Van Gogning hayoti va ijodini bilmagan kishilar “Ha, uyam oddiy rassom-da” deyishi mumkin. Lekin asl san’at shinavandasigina mashaqqatli kechgan hayoti davomida birorta ham asarini sotolmagan bu san’atkorning asarlari qadri-qiymati qanchalik baland ekanligini his qila oladi. Rassomning asarini bir qarashda baholab bo‘lmaydi. Uning faqatgina asarini emas, o‘sha buyuk ijodiy asarning paydo bo‘lishi jarayonidagi qiyinchiliklarni his qila bilish, muallif hayoti haqida ham birmuncha ma’lumotga ega bo‘lish muhimdir.

Odamzod o‘zini o‘zi muntazam tarbiyalab borishi kerak. Faqat kitob o‘qish bilangina emas, teatr, kino, opera, muzey, ko‘rgazmalarga borish orqali san’atga muhabbatini parvarishlashi lozim. Farzandlar yoshligidan san’atga oshno qilib tarbiyalansa, muzey, kutubxona, teatrlarga ota-ona o‘zi birga olib borsagina, ularda ijodiy immunitet paydo bo‘ladi. Keyinchalik ular orasidan buyuk san’atkorlar, mashhur shaxslar yetishib chiqishi mumkin. Uyda televizor qarshisida yonboshlab yotish, uzzukun telefon titkilash ongning rivojlanishini sekinlashtirib qo‘yishi tayin.

Men serfarzand va kambag‘al xonadonda dunyoga kelganman. Oilamizda san’atga bog‘liq hech kim yo‘q edi. Kosiblar, bog‘bonlar, karvonboshilar o‘tgan. Ota-bobolarim musiqa, adabiyot yoki rassomchilik bilan shug‘ullanmagan.

– Ba’zilar g‘arb tasviriy san’ati haqida yetarli bilim va tasavvurlarga ega. Biroq ko‘pchilikda o‘zbek milliy tasviriy san’ati, Sharq rassomligi haqida yetarlicha ma’lumot yo‘q. Yaqinda bir tanishim, bizda tasviriy san’at sohasi rivojiga islom ta’limoti to‘sqinlik qilgan, shuning uchun o‘tmishda bu soha yaxshi rivojlanmagan, degan gapni aytib qoldi. Lekin o‘tmishda bizda miniatyura san’ati rivojlangan-ku. Hatto, Kamoliddin Behzod singari ulug‘ musavvirlarimizning asarlari Yevropadagi novator rassomlarga ham ilhom bag‘ishlab, ularning tasviriy san’atda yangi yo‘nalish va uslublarni kashf qilishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan, deyishadi. Sizning bu haqdagi fikringiz qanday?

– San’atdan bexabar odamlargina Sharqda rassomlik yaxshi rivojlanmagan, degan fikr bilan yashaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Buyuk ipak yo‘li faqat savdo-sotiq tizimi bo‘lmay, balki buyuk san’at va ilm yo‘li vazifasini ham o‘tagan. G‘arb olimlari Sharq mutafakkirlarining kitoblaridan juda ko‘p narsalarni o‘rganishgan, o‘z navbatida sharqliklar ham g‘arbliklarning asarlariga murojaat qilgan. Rassomlikda ham xuddi shunday jarayonlar kechgan. Varaxsha, Afrosiyobdagi devoriy rasmlar miloddan avvalgi davrlarda ham yurtimizda tasviriy san’at yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Haykallar-chi? Ular Sharqda buyuk san’at bo‘lganining isboti emasmi? Masalan, ispan elchisi Klavixo dunyoning bir chekkasidan karvon orqali Amir Temur davlatigacha yetib kelgan. U o‘zining realistik asarida sohibqiron saroyida ko‘rgan-kechirganlarini haqqoniy tasvirlagan. Bu Sharqqa bo‘lgan yaqqol qiziqishdan darak aslida. Bugun esa fikr almashishga imkoniyatlar keng. Istagan paytingizda Prado, Luvr yoki Ermitajdagi ko‘rgazmalarga borishingiz mumkin. Bizning yurtimizga kelayotgan sayyohlar ham tariximiz bilan yaqindan tanishgani bois Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarimizni ko‘rishga ishtiyoqmand bo‘lgani shubhasiz.

Kamoliddin Behzod butun dunyoga Sharq Rafaeli nomi bilan tanilgan. Rassomlik yo‘nalishlari rivojiga islom dini monelik qilgani haqidagi fikrlarga mutlaqo qo‘shilmayman. Bu aslida muqaddas dinimizni qoralash uchun o‘ylab topilgan sho‘roviy bo‘htondan o‘zga narsa emas.

– Asarlaringiz dunyodagi nufuzli muzey va ko‘rgazmalardan, shaxsiy kolleksiyalardan joy olgan. Qator xorijiy mamlakatlarda ijodiy ko‘rgazmalaringiz muvaffaqiyatli namoyish qilinganidan ham xabarimiz bor. O‘zingiz nima deb o‘ylaysiz, chet elliklarning ijodingizga bu darajada katta qiziqish bilan qarashining siri nimada? Umuman, xorijda o‘zbek milliy tasviriy san’atiga munosabat qanday?

– Men 1987-88-yillarda Amerikaga ellikdan ortiq ijodiy ishlarimni olib bordim. U yerda mening asarlarimga katta qiziqish bilan munosabatda bo‘lishdi. Ko‘rgazmaga kelganlar orasida san’atni tushunadiganlar ham, tushunmaydiganlar ham bor edi. Ammo odamlarning barchasida birdek ijobiy kayfiyat ko‘rdim. Ular menga qarab faqat bir so‘zni takrorlashardi: “beautiful” – ya’ni “go‘zal”. Bilsangiz, amerikaliklarning g‘alati fe’li bor, ya’ni doim o‘qib, izlanib, yangi narsalarni o‘rganishga harakat qilishadi. Ular biron ko‘rgazma bo‘ladimi yoki biron rassom bilan uchrashuv bo‘ladimi, yangi suratga olingan film yoki nashr qilingan kitob taqdimoti uyushtiriladimi, birinchilardan bo‘lib undan bahramand bo‘lishga intiladi. Umuman, ko‘plab rivojlangan davlatlar fuqarolari yoshidan qat’i nazar, dunyo kezishni kanda qilmaydi, jahon ajoyibotlaridan bahramand bo‘lishga ishtiyoqmand bo‘lishadi.

Afsuski, bizning xalqimiz borgan sari kutubxona, muzey va ko‘rgazmalardan uzoqlashayotganga o‘xshaydi. Televideniye va axborot texnologiyalarining rivojlanishi yoki ong-u shuurimizni boshi-keti yo‘q ma’lumotlar bilan to‘ldirib tashlayotgan ijtimoiy tarmoqlar bunga sabab bo‘lyotgandir balki. Shuning uchun odamlarni muzey, kutubxona va ko‘rgazmalarga jalb etish yo‘llarini izlashimiz kerak. Axir, o‘z rassomlarini tanimagan, adibi, musiqashunos, hofizlarini bilmagan xalqning ertasi nima kechadi?

Holbuki, bugun aynan rassomlik sohasida o‘sishlar kuzatilmoqda. Musavvirlarimiz, ayniqsa, yosh ijodkorlarning chet davlatlarga ko‘rgazmali safarlari ko‘paymoqda. Ular Parij, London, Lissabon, Praga kabi shaharlarda o‘zbek san’atining sehr-u jozibasini dunyoga namoyon qilishyapti.

Savolingizga kelsak, ijodiy ishlarim xorijliklarni nega bunchalik qiziqtirishining sababini o‘zim ham aniq bilmayman. Men mo‘yqalamni shunchaki qo‘limga olmayman. Chizayotgan har bir asarimni ich-ichimdan his qilib, mayda nuqtasigacha aniq tasvirlashga, har bir chizilgan chizmada o‘zimning bir bo‘lagim yashab qolishiga erishish uchun harakat qilaman. Shuning uchun bo‘lsa kerak, asarlarim haqiqiy san’atsevarlarning e’tiboridan chetda qolmaydi. Yana bir sababi, san’atga qiziqishi bor har qanday odam, ayniqsa, tarixiy asarlarni tomosha qilishni yaxshi ko‘rishadi. Chunki tarix hamma uchun birday qiziq va jozibalidir.

– Siz bir muddat Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida bosh rassom sifatida ham ishlagansiz. “Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshligi” asaringizda bu ulug‘ insonlarning sharqona obrazini yaratgansiz. Ayting-chi, Alisher Navoiy ijodi bugungi davr musavviriga nima berishi mumkin? Umuman, zamonaviy rassomlarimizning Alisher Navoiy asarlari va mumtoz adabiyotimiz namunalariga munosabati haqida nimalar deya olasiz?

– Alisher Navoiy shu qadar buyuk siymoki, uning ijodiga murojaat qilmagan ijodkorni topish qiyin. Asarlarini mutolaa qilmagan, u haqidagi tarixiy ma’lumotlarni bilmaydigan ziyoli, menimcha, O‘zbekistonda yo‘q. Men lirika, nazm deganda, avvalo, Alisher Navoiyni xayolimga keltiraman. Aslida mumtoz adabiyotimizda buyuk shoirlar juda ko‘p o‘tgan. Masalan, Navoiyning do‘sti Husayn Boyqaro “Husayniy” taxallusi bilan she’r yozgan, shoh va shoir Mirzo Bobur, Ibn Sino, hatto Kamoliddin Behzod ham shular jumlasidan.

Siz tilga olgan “Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshligi” – ilk tarixiy asarlarimdan biri bo‘lgan. Ustozim Chingiz Ahmarovning maslahati bilan shu kichik asarni yaratganman. Negadir shu suratimni miniatyura uslubida chizgim kelgan. Shu jihat ustozimni lol qoldirgan va u kishi: “Sendan yaxshi rassom chiqadi, buning uchun ko‘p o‘qi, ko‘p tomosha qil, harakatdan to‘xtama”, deb nasihat qilgandi o‘shanda.

– Asarlaringizda qahramonlarning yuz ifodasiga alohida e’tibor berasiz. Ularning qiyofasida ruhiy holati, munosabati, kinoyalari ham ko‘rinib turganday go‘yo...

– Har bir rassom chizayotgan asarida o‘zini tasvirlaydi. Misol uchun, qarshingizda turgan “To‘maris” kartinasini boshqa rassom o‘zgacharoq, o‘z xarakteri va bilimidan kelib chiqib chizgan bo‘lardi. Odatda hamma portretchi musavvirlar qahramonini o‘ziga o‘xshatib qo‘yishdan cho‘chib, shundan ehtiyot bo‘lishadi.

Suratlarda qahramonning hissiyotlari uning harakatlari orqali ifoda etiladi. Boshqacha aytganda, tasviriy san’at asari ana o‘sha harakat tasvirlari orqali “so‘zlaydi”. Mana, “To‘maris” asariga nazar soling. Uning dushmanga cheksiz nafratini nafaqat uning nigohidagi ifodalardan, qo‘l harakatlaridan ham sezish mumkin. Uni og‘zini yopgan holda tasvirlangan, ya’ni bu jasur ayol jim turib hayqiryapti. Rassom faqatgina ko‘rganlarini chizmaydi, ko‘rib turib his qilganlarini mo‘yqalamga oladi. Masalan, mashhur rassom O‘rol Tansiqboyevni olaylik. Uning asosan tabiat manzaralaridan iborat asarlari shunchaki borliqdan ko‘chirma olib chizilmagan. Ulug‘ musavvir o‘zi ko‘rib, dildan his qilgan kechinmalarini tasvirlagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, uning asarlariga odamlarning mehri o‘zgacha. Pikasso ta’biri bilan aytganda, “Men tabiatdan olib chizmayman, u bilan birga chizaman”.

– Saboq bergan ustozlaringiz haqida ham gapirsangiz.

– Birinchi ustozim bu – Zoyir amakim bo‘ladilar. U kishi mendagi tasviriy san’atga ishtiyoqni o‘z vaqtida payqab, maktabga yetaklab olib borganlar. Shundan keyin taqdir taqozosi bilan rassomlar orasiga tushdim, ko‘plab ko‘rgazmalarda qatnashdim, do‘stlar orttirdim. Keyinchalik Chingiz Ahmarov bilan tanishdim. U kishi odamoxun, yumshoq tabiatli inson edi. Kattaroq devoriy rasmlar chizganida o‘zi ishongan shogirdlari bilan birga ishlardi. Tortgan chiziqlarim o‘zinikiga o‘xshagani uchun u kishi ko‘pincha menga suratning “jon tomiri”ni chizishni ishonib topshirardi. Ha, baxtim shuki, birinchi ustozim Chingiz aka bo‘lgan. Keyinchalik yosh rassom Boris Ivanovichdan ham saboq oldim. U kishi menda bo‘lajak kino rassomini ko‘rdi va Moskvadagi kino institutida o‘qishni tavsiya qildi. U yerda ham mashhur rus rassomlariga shogird bo‘ldim.

Bugun ishonch bilan aytishim mumkinki, O‘zbekistonning buyuk tarixi, jahon kezib, o‘z ko‘zim bilan ko‘rgan muzeylar – mening eng katta ustozlarim hisoblanadi. Yurtimizning shonli o‘tmishi sahifalari menga cheksiz zavq bag‘ishladi, muzeylardagi muhtasham san’at asarlari meni musavvir sifatida tarbiyaladi.


– Ustoz ijodkor sifatida yosh musavvirlarimiz ijodiga qanday baho berasiz?

– Yilda bir marotaba ikkinchi kurs talabalarini ustaxonamga taklif qilaman. Bu yerni ko‘rish ulardagi ijodga ishtiyoq, shijoatni kuchaytiradi. Ba’zilari tushkunlikka tushib qolishi ham mumkin. Chunki shu asnoda ular musavvirlikning qiyinchilik va mashaqqatlari bilan ham yaqindan tanishadi. Rassomlikning asosida tinimsiz harakat, qattiq mehnat yotadi. Bu uzluksiz jarayondir. Bir-ikkita asar chizib qo‘yib: “Men endi yetuk rassom bo‘ldim”, degan xayolga borish juda xato fikrdir. Talabalar ustaxonada ijod qilish jarayonini tushunib-anglab yetishi uchun ham ularni “pirxonam”ga taklif qilaman. Bo‘ladigani zo‘r rassom bo‘lsin, bo‘lmaydigani vaqtida boshqa ishning etagini tutsin, deyman. O‘rtacha rassom bo‘lish bu – fojia...

O‘zing bilgan, anglagan narsalarni yoshlarga o‘rgatishning zavqi o‘zgacha. Shuning uchun men qariyb qirq yildan buyon Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida talabalarga dars o‘taman. Shogirdlarimning ba’zilari allaqachon “O‘zbekiston xalq rassomi” faxriy unvoniga sazovor bo‘lishgan, boshqa birlari esa taniqli dizayner, mohir pedagog sifatida tanilgan. Chet davlatlarda ijod qilayotganlari ham talaygina. Ularning yutug‘i menga ruh bag‘ishlaydi. Ertaga mening ortimda chizgan asarlarim va yetishtirgan shogirdlarim qoladi, degan o‘ydan ko‘nglim yorishadi.

– Bugun o‘zbek tasviriy san’atida kechayotgan ijodiy jarayonlarga qanday baho berasiz? Bu borada nimalar sizni xursand qiladi-yu, qaysi jihatlardan ko‘nglingiz to‘lmaydi?

– Albatta, meni quvontiradigan yaxshi jihatlar ko‘paygan. Men o‘qitgan, men bilgan yosh rassomlar ijodida yangiliklar, guruhli va shaxsiy ko‘rgazmalar soni sezilarli darajada oshgan. Bular aytishgagina oson. Hozir hamma ham birdek mehnat qilib, halol peshona teri evaziga topgani bilan yashamayapti. Rassomlik – biznes emas! Bu sohada halol mehnat va ijod birlamchi bo‘lishi kerak. Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, musavvirlar orasida ham mehnat qilmasdan davlat hisobidan kun ko‘rayotganlar yoki o‘z kasbidan oson pul topish yo‘lida foydalanayotganlar bor. Mana shunday holatlar menga ma’qul emas.



– Keyingi vaqtlarda yurtimizda jadid ma’rifatparvarlarining xotirasini e’zozlash, ularning sharafli faoliyati va merosini o‘rganish hamda ommalashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ularga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilib, ilmiy-ma’rifiy, badiiy asarlar yaratilmoqda. Xo‘sh, tasviriy san’at sohasida bu jarayon qanday kechyapti?

– Jadidlik harakati meni ilgaridan qiziqtirib kelgan. Jadidlar qanday insonlar bo‘lishgani, nima uchun o‘z jonlarini qurbon qilishgani haqida ko‘p o‘qib, o‘rganganman. Yosh yigit paytimda San’at muzeyidan menga o‘tgan asr boshlarida yurtimizdan yetishib chiqqan mashhur harbiy qo‘mondon Mirkomil Mirsharopov suratini chizish haqida buyurtma tushdi. Kutuxonalarga borib, bu inson haqida ma’lumotlar to‘pladim. O‘zbekiston kino-foto hujjatlar arxiviga murojaat qilganimda bir taxlam ma’lumotlarni oldimga qo‘yishdi. U kishi haqida yozilgan maqolalar, suratlar, tuhmat va bo‘htonlar bosilgan gazeta parchalari degandek...

Men o‘sha paytgacha faqatgina Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi ziyolilar jadid bo‘lishgan deb o‘ylardim. Keyinchalik bilsam, ularning safi juda keng bo‘lgan ekan. Boshqa sohalarda ham ko‘plab fidoyi insonlar Vatanimizning istiqloli va taraqqiyoti uchun kurashgan ekan. Mirkomil Mirsharopov ham yosh bo‘lishiga qaramasdan iste’dodli qo‘mondon bo‘lgan. Uning hayotini o‘rganayotganimda qo‘limga bir surat tushib qoldi. Unda Mirkomil Mirsharopov o‘ziga yarashgan harbiy libos kiyib, qo‘lida qilich ushlagancha kursida o‘tirgan holatda tasvirlangan edi. Ana shu surat chizilajak portretni xayolan tasavvur qilishimga yordam berdi. Men o‘z asarimda Mirkomil Mirsharopovni otliq harbiy sifatida tasvirladim. Asarni muzeyga topshirganimda buyurtmachilar hayron qolishdi. Chunki Mirkomil Mirsharopov haqiqatan ham otliq askar bo‘linmasiga qo‘mondonlik qilgan ekan.

U vaqtlarda jadidlar haqida gapirish mumkin emas edi. Bugun Prezidentimiz tomonidan jadidlar xotirasiga ko‘rsatilayotgan ehtirom meni ham benihoya to‘lqinlantiradi. Bunday fidoyi ajdodlarimizning orzu va armonlari bugun to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqmoqda. Birgina “Jadid” gazetasining tashkil etilishi zamirida ham juda katta ramziy ma’no bor. Biz ma’rifatparvar bobolarimiz haqida har qancha gapirsak, shuncha oz. San’at, adabiyot, ilm-fan orqali ularni xalqimizga yanada yaqinroq tanitishimiz kerak. Men ham bu jarayonda ishtirok etish istagidaman. Ya’ni shu kunlarda jadid namoyandalarining portretlarini chizishni rejalashtirib turibman.

– Mana, hozir tabarruk yoshdasiz. Bu yoshda har qanday inson ortiga nazar solib, bosib o‘tgan hayot yo‘lini sarhisob qilishi tabiiy.

– Odamzod yoshini o‘zi hisoblaydi, ammo ijodkorning yoshini uning yaratgan asarlari, erishgan yutuqlari belgilaydi. Hamma narsaning o‘z vaqti bor. Bugun talabalarimga ham zamon shiddat bilan o‘tib ketyapti, ijodga ulgirish kerak, tinimsiz harakat qilish, o‘qib-o‘rganib vaqtdan unumli foydalanib qolish lozim, deb ko‘p nasihat qilaman. Hayotda ijodkor o‘zidan yaxshi nom va yaxshi asarlar meros qoldirishi shart.

– Ijodiy rejalaringiz haqida ham to‘xtalib o‘tsangiz.

– Ijodiy ishlarimning har birida jonajon O‘zbekistonimiz, uning tarixi, milliyligini aks ettirishga harakat qilaman. Pikassoga o‘xshatib chizsam ham asarlarimda o‘zbekona ruh ufurib turishini istayman. Ijodkorga yangi g‘oyalar osmondan tushib qolmaydi, uni izlash kerak. Buning uchun rassom iste’dodli va chuqur bilim egasi bo‘lishi lozim. Eng asosiysi, ijodkor o‘z Vatanini sidqidildan, samimiy sevishi zarur. Musavvir asarlarida Vataniga cheksiz muhabbatini ro‘yirost ko‘rsatishi zarur. Vatanni sevmagan odam chin ijodkor bo‘lolmaydi.

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.

JONIM VATAN, TANIM VATAN, KO‘ZIM VATAN

Boshlanishi 1-sahifada.

Mazkur g‘azal Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiyning “Ma’naviyat” nashriyoti tomonidan 1998-yilda “Istiqlol qahramonlari” turkumida chop etilgan “Tanlangan asarlar” kitobining “Ishqiy lirika” faslida, “G‘azallar” bobining to‘qson ikkinchi g‘azali sifatida to‘plamga kiritilgan. Kitob g‘azallardan tashqari “Ijtimoiy she’rlar”, doston, hajviyot, ibrat va hikmatlar, voqeiy hikoyalar, “Zarbulmasali Sidqiy”-dan namunalar, qaydlar, tarjima va nasriy qissalar, shuningdek, “Holoti Sidqiy” nomli tarjimayi hol singari fasllardan tartib berilgan. Aytish mumkinki, bu kitob Sidqiy boboning o‘sha paytga qadar tugal-to‘kis bo‘lmasa-da, yaxlit muqova ostida chop etilgan yagona mukammal asarlari majmui sifatida alohida ahamiyatga ega edi. To‘plamni nashrga tayyorlashda, izohlar va lug‘at tuzishda katta mehnat sarflagan zahmatkash olimimiz Begali Qosimov bilan Ramida Javharovaning “Din va dunyoni ushlagan shoir” sarlavhali so‘zboshi-muqaddimasi Sidqiy Xondayliqiyning mashaqqatli umr yo‘li, ranj-u sinovlarga to‘la hayoti va sermahsul ijodiyotidan to‘liq va mukammal ma’lumot berishi bilan muhimdir. Mazkur batafsil tadqiqotning Sidqiy domla tavalludining 140 yilligi munosabati bilan yanada to‘liqroq va kengroq tayyorlangan “Saylanma” kitobiga ham kiritilgani, ayniqsa, tahsinga sazovor.

“Tatabbu”ga qaytadigan bo‘lsak, shoirning she’rlari meni butunlay rom etgan edi. Bir tomondan u kishiga otdoshligimdan g‘ururlanib, dalda olib yurgan bo‘lsam-da, g‘azallariga barcha talablarga javob beradigan muxammas – rosmana qonuniy taxmis bog‘lash fikridan voz kechdim. Gap shundaki, g‘azaldagi, yuqorida tamsil keltirganim “Ot-eshakda o‘rdan-qirdan bug‘doy tashib” satridagi “ot-eshak” so‘zlari hech o‘tirishmadi o‘tirishmadi-da! “Ot-ulov” deb o‘zgartirsa ham bo‘lar balki, lekin bu jonivorning, beozor va mehnatkash bu jonivorginaning aybi nimada?.. Muallifdan izn so‘rab bo‘lmasa, qolaversa, bor gap borligicha aytib bo‘lingan bo‘lsa... Alalxusus, erkinroq yo‘lni tanlashga qaror qildim. Taxmis bog‘laganim, o‘zimning ham ko‘nglim to‘lmagan birinchi nusxadan ham voz kechishga to‘g‘ri keldi. Demak, tatabbu’ va yoki tazminga to‘xtalamiz. “Navoiy asarlari lug‘ati”da bunday izohlarni o‘qiymiz: “Tazmin” arabcha so‘z bo‘lib, birovning ma’lum bir she’rining ayrim misralarini o‘z she’ri ichiga kiritish”. “Tatabbu” arabcha bo‘lib, ergashmoq, izidan bormoq, nazira, o‘xshatma qilmoq yoki javobiya degan ma’nolarni bildirar ekan.

Mumtoz she’riyatimizda Mir Alisher Navoiy bobomizning Shayx Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, mavlono Abdurahmon Jomiy singari ulug‘ shoirlarning g‘azallariga tatabbu’lari ma’lum va mashhurdir.


O‘tgan asr va hozirgi zamon o‘zbek she’riyatida, Furqat, Muqimiyning bu yo‘nalishdagi asarlari, G‘afur G‘ulomning “Navoiy ham yotar to ro‘zi mahshar tarki xob aylab” maqta’li g‘azaliga bitgan go‘zal tatabbu’si, Erkin Vohidovning amerikalik o‘zbek shoiri Ergash Uchqun she’riga bitgan “Turkiston bozori”, Zavqiyona ohanglardagi “Ajab ermas” singari naziralari, Abdulla Oripovning hazrat Navoiy va Maxtumquli she’rlariga yozgan “Bo‘ldilo”, “Ayrilmas” singari tazminlari tatabbu’ usulining go‘zal namunalari bo‘la oladi.

Ustozlar maktabidan saboq olgan holda, ularga havas qilib, men ham bu yo‘lda ba’zi bir mashqlarga, urinishlarga jazm etgan edim. O‘zimni istak-xohishlarim, havas va harakatlarim o‘laroq, ma’lum tajriba va natijalarga ham erishganday bo‘ldim, deb o‘ylayman.

Har she’r yo asar o‘z davr-u zamoni bilan tug‘iladi, derdilar ustozlar. Zamon o‘zgarmoqda edi, davr ulug‘vor yangilanishlar sari yuz tutmoqda edi. Yana ushbu muxammasning qadrli jihati shunda ediki, men uni ilk marotaba 2016-yilda “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida Konstitutsiyamiz bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali anjumanda muhtasham sahnada o‘qish baxtiga musharraf bo‘lganimdan baxtiyor edim.

She’r va uning ijrosi anjuman ahli tomonidan yaxshi qabul qilindi. Muxammas ilk imtihondan o‘tganday bo‘ldi.

Xulosa shulki, Usmon Nosir “Sen – Laylisan she’rim, men Majnun” debon jo‘yali e’tirof etganiday, shoir kishi o‘zga mualliflarning she’rini ham o‘z she’rini sevganday yaxshi ko‘rsagina, biror murod hosil bo‘lmog‘iga amin bo‘lib turibman. So‘zning uvoli ham, savobi ham bo‘ynimizda. Hukmfarmoliq aziz o‘quvchiga havola. Shoir bobodan izn va uzr so‘ragan holda, demak, mana sizga tazmin-muxammas va... aytilganidek, tatabbu’-taxmis ham shu bo‘lur. Sidqiy Xondayliqiy boboning muborak ayyomlari aziz eldoshlarimizga qutlug‘ bo‘lsin deymiz.



Vatan mening yarqiragan qo‘rg‘on yerim,
Oy-u oftob mangu qo‘rg‘on qurg‘on yerim.
Esdan chiqar boshqa hamma ko‘rg‘on yerim,
Vatan mening tuqqon yerim, turg‘on yerim,
Unib-o‘sib, o‘ynab-kulib yurg‘on yerim.

Insoniylik degan qadim ziroatlar,
Oriyat ham oriyatga rioyatlar,
Shunda ungan, aytsin ko‘hna rivoyatlar,
Yetmish pushtim tiklab ketgan imoratlar,
Tarbiyatning binosini qurg‘on yerim.

Onamsan deb, izlaringni ko‘zga surtsam,
Bolam desang, suvlaringday mavjlar ursam,
Tog‘laringday baland-baland o‘ylar sursam,
Qayda bo‘lsam, qayda tursam, qayda yursam,
Mangu o‘ynar ko‘zda javlon urg‘on yerim.

Jahon kezar jamolingga quyosh to‘ymay,
Maysang bo‘lib sening uchun nechun kuymay?
Dilimdan ham, tilimdan ham noming qo‘ymay,
Jonim birlan, tanim birlan nega suymay,
Rohat yashab, sog‘lom yashab yurg‘on yerim.

Kaftlarimni ochib oqshom hilolingga,
Yuzga surtgum kamol istab kamolingga,
Daxldorman eling – noni halolingga,
Ta’zim aylab zahmat chekkan chumolingga,
Sajdagohim, sajdaga bosh urg‘on yerim.

Behishtlarga opa-singil fasllaring,
Bo‘y talashib o‘sgan yangi nasllaring,
Buncha shirin, buncha dilbar vasllaring,
Ulug‘laring asrlarga qasrlaring,
Qasrlari asrlarni ko‘rg‘on yerim.

Bobolardan meros mehr-u shafqatimsan,
Qatlam-qatlam ilm-u hadis, hikmatimsan,
Matonatdan bino bo‘lgan davlatimsan,
G‘ururimsan, orim, sha’n-u shavkatimsan,
Dunyo yuzin sharaf-shonga burg‘on yerim.

Bug‘doy boshog‘iday ungan so‘zim – Vatan,
Kimman axir sensiz men bir o‘zim, Vatan?
Olam aro mening yorug‘ yuzim Vatan,
Jonim Vatan, tanim Vatan, ko‘zim Vatan,
Davron ko‘rib, davr-u davron surg‘on yerim.

2011–2016

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi,
O‘zbekiston xalq shoiri

FARG‘ONADA ADABIYOT BAYRAMI

Boshlanishi 1-sahifada.

Ne-ne anjumanlarga shohid bo‘lgan Qo‘qon teatr binosi adabiyotning asl muxlislari bilan gavjum. Anjumanda Farg‘ona viloyati hokimi o‘rinbosari Xurshid Ahmedov so‘zga chiqib, adabiyot xalq ma’naviyatini yuksaltiruvchi, tilini rivojlantiruvchi, millatni tarbiyalovchi qudratli vosita ekanligini, bundan keyin ham ustoz va yosh ijodkorlar qo‘llab-quvvatlanishini aytib o‘tdi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari Minhojiddin Mirzo va boshqalar o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarini xotirlash, bugungi kunda qizg‘in ijodiy faoliyat yuritayotgan shoir va yozuvchilarni ardoqlash yurtimizda adabiyotga bo‘lgan e’tibor, ijodkorlarga g‘amxo‘rlik ifodasining yuksak namunasi ekanini alohida ta’kidlashdi.

– Davlatimiz rahbari “Adiblar xiyoboni” ochilishida “adabiyot xalqning yuragi” deb aytgandilar. Ana shu yurak ichida Farg‘ona, Qo‘qon adabiy muhitining buyuk namoyandalari yotibdi, – deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari Minhojiddin Mirzo. – Qo‘qonda adabiyot bayrami o‘tishida ramziy ma’no bor. Bu bayram yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kamolga yetkazishda katta ahamiyatga ega.

Anjumanda ulug‘ allomalar, marhum ijodkorlar bilan birga, bugun yetuk asarlar yaratayotgan Hamid Burhonov, Nosir Zohidov, Karimabegim, Abdulatif Muhammad kabi shoir va adiblar haqida e’tirof so‘zlari aytildi.

Adabiyot bayrami Farg‘ona, Marg‘ilon shaharlarida davom etib, nafis majlislar nazm va navo kechalariga ulandi.

Muhammadjon OBIDOV,
(O‘zA)

KO‘RGAZMA


LAHZALARGA JO BO‘LGAN UMR

Yaqinda poytaxtimizdagi Fotosuratlar uyida O‘zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi, grafik rassom Nusratulla Abdullayevning “Unutilmas lahzalar” nomli shaxsiy ko‘zgazmasi bo‘lib o‘tdi. Ko‘rgazmada rassomning saksondan ortiq rangtasvir va grafik asarlari, qator kitoblarga ishlangan muqova va illyustratsiyalari namoyish etildi.

Ko‘rgazma muallifi Nusratulla Abdullayev uzoq yillardan buyon Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida talabalarga sabob keladi. Uning rangtasvirda ishlagan asarlari o‘ziga xos uslubga ega.

Grafik asarlari orasida “Paxtanoma” turkumi alohida e’tiborni jalb qiladi. Turkumda jamiyatimizda kechgan paxta siyosati bilan bog‘liq turli voqea va hodisalar to‘laqonli tasvirlangan. Undagi mavzular mantiqiy jihatdan bir-birini to‘ldiradi. Qog‘ozda oddiy qora qalamdan foydalanilgan bo‘lsa-da, undagi har bir chiziq, tasvirlangan voqealarning o‘zi singari muhim.

– Mazkur ko‘rgazma yetmish yillik umrim hisoboti o‘laroq tashkil qilindi, – dedi musavvir. – Istardimki, kelgan har bir inson ijodiy ishlarimdan o‘zi uchun foydali nimanidir olib, nimanidir topib, kashf qilib ketsin. Rassom tabiatda bo‘layotgan har qanday o‘zgarishga o‘z munosabatini asarlari bilan ifodalaydi. O‘tgan lahzalar shu asarlarda muhrlanib



qoladi, bo‘yoqlar tarixni so‘zlaydi. Insonni aziz xotiralarga boshlaydi.

– Har bir ijodkorning o‘z tanlagan yo‘li bo‘ladi va hamma ham tanlagan yo‘lining oxirigacha borolmaydi, – dedi tadbirda so‘z olgan O‘zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi raisi Ibrohim Valixo‘jayev. – Nusrat aka nafaqat o‘z yo‘lini topgan, balki ko‘plab yoshlarni ham yo‘naltirolgan, rassom bo‘lishiga hissa qo‘shgan ijodkordir. U asarlarida litografiya, linografiya, akvarel qalam tasvir uslubidan mohirona foydalanadigan o‘ziga xos grafik rassom. Nusrat aka kabi ijodkorlar kelajak avlodga yo‘nalish ko‘rsatuvchi yo‘lchiroq bo‘lib xizmat qiladi.

Muxbirimiz.

SAN’AT

Bugun zamonaviy tasviriy san’atga yangi yo‘nalishlar, yangicha ifoda usullari shitob bilan kirib kelmoqda. Bunday o‘zgarishlar ortida, avvalo, tezkor zamon ruhi, qolaversa, sohaga dadil qadam qo‘yayotgan yosh ijodkorlarning o‘ziga xos fikrlashi, tasvirda rang-baranglikka, muhimi, mustaqil ijodiy yo‘lini yaratishga bo‘lgan intilishi turibdi.



BIYENNALE – MULOQOTLAR JARAYONI

Ayni paytda tajribali rassomlar va haykaltaroshlar ijodida ham zamon bilan hamnafaslikka intilish kuzatilayotir.

14–18-oktyabr kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan, “San’at va dunyo” deb nomlangan X Xalqaro zamonaviy san’at biyennalesida namoyish etiladigan turli mavzudagi asarlar rassomlik san’atida yuz berayotgan yangilanishlar xususida yanada kengroq va aniq fikr-mulohazalar uyg‘otishiga shubha yo‘q.

Kuni kecha poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida bo‘lib o‘tgan anjuman mazkur Xalqaro biyennalega bag‘ishlandi. O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi, xalq rassomi Akmal Nuriddinov biyennalening ahamiyati haqida so‘zlar ekan, jumladan, shunday dedi:

– Butun dunyoda, O‘zbekistonda ham barcha sohalarda rivojlanish davom etmoqda, Yurtimizda bugun boshqa sohalar qatori tasviriy san’at va haykaltaroshlikda ham jiddiy o‘zgarishlar yuz beryapti. Ayniqsa, bu sohada iste’dodli yoshlarning ko‘payayotgani bizni quvontiradi, bizga umid bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham navbatdagi biyennaleda katta yoshdagi ijodkorlarimiz bilan birga yurtimizda ijod qilayotgan, endi san’atga kirib kelayotgan yoshlar ijodini ham ko‘rsatishga jur’at qildik. Biyennale – avvalo, muloqot jarayoni. Chunki chet ellik hamkasblarimiz bilan hamma vaqt ham muloqot qilish imkoniyati bo‘lavermaydi. Ijodkorlarga shunday muhim muloqot jarayonini yaratib berayotgan Prezidentimizga minnatdorlik bildiramiz. Chunki davlatimiz tomonidan biyennale har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib, ijod va o‘zaro muloqot uchun zarur sharoit yaratib berilyapti.

Xalqaro biyennale hay’ati a’zolari chet ellik beshta mutaxassisdan iborat. Mazkur anjumanda yurtimizdan ellikdan ortiq ijodkor, chet eldan esa o‘ttiz nafar rassom, shuningdek, onlayn tarzda 28 ta musavvir qatnashish istagini bildirgan.

Biyennaleda dunyoning Fransiya, Bahrayn, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Qirg‘iziston, Yaponiya, Vengriya, Gruziya, Turkiya, Italiya, Meksika, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Armaniston kabi ellikdan ortiq mamlakatdan rassomlar va mutasaddi ijodkorlar qatnashishi kutilmoqda. Asosiy tadbirlar O‘zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko‘rgazmalar zalida, Ikuo Xiroyama xalqaro madaniyat karvonsaroyi, Toshkent foto uyi, Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san’ati muzeyi, “Akademiya” galereyasi, shuningdek, O‘zbekiston Tasviriy san’at galereyasida bo‘lib o‘tadi.

Gulchehra UMAROVA



2024-yil 11-oktyabr
№ 42(42)

ZIYOSI BIR O‘ZBEK BILAN TURKMANNING

Boshlanishi 1-sahifada.

Muqaddas dini, urf-odat va an’analari uyg‘un ikki xalqning adabiyoti, ma’rifat va ma’naviyati ham bir-biriga tutashib ketganligi har doim qalbimizga g‘urur bag‘ishlaydi.

O‘zbek xalqining buyuk dahosi hazrat Alisher Navoiy o‘zining “Xazoyin ul-maoniy” devonida turkmanlarni ulug‘lab g‘azallar bitgani qalbimizda cheksiz faxr-iftixor uyg‘otadi. O‘z navbatida, biz ulug‘ turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iyning hazrat Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilganidan ham g‘ururlanamiz. Shuningdek, Maxtumquli Firog‘iy o‘zbek zaminidan yetishib chiqqan Bahouddin Naqshbandiy, Zangiota, Said Mirkulol, Sulaymon Boqirg‘oniy kabi ulug‘ tasavvuf namoyandalarini o‘zining ma’naviy rahnamolari deb hisoblagani ham turkman-o‘zbek do‘stligi naqadar chuqur ildiz otganidan darak beradi.

Bu do‘stlik, birodarlik bizning davrimizda yanada yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Hozir ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy aloqalar yangi bosqichlarda rivojlanib boryapti. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevraldagi “Buyuk turkman shoiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori har ikkala davlat xalqlarini to‘lqinlantirib yubordi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida qator tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Joylarda maxtumqulixonlik kechalari zo‘r tantanalar bilan davom etmoqda.



Maxtumquli o‘zbek xalqining ham sevimli, ardoqli shoiri sanaladi. Azaldan har bir xonadonda shoirning kitoblari e’zozlanib, she’rlari yoddan o‘qilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Tarixdan ma’lumki, Maxtumquli dahosiga muhabbat o‘zbek xalqining har bir to‘y va marosimlarida namoyon bo‘lib kelgan. Qo‘liga tor olgan san’atkor bo‘lsin, u Maxtumquli she’rlarini ham qo‘shiq qilib kuylash orqali xalqimiz e’tiborini qozonadi. Maxtumqulixonlik kechalari o‘tkazish an’anasi esa, hozir ham izchil davom etib kelayotgani ana shu muhabbatning yuksak namunasidir.

Yurtimizning ma’rifatparvar insonlari Maxtumquli ijodini o‘rganish, tadqiq qilishni o‘zlarining ma’naviy vazifasi qilib belgilagan. Ana shu vazifalar zalvorida adabiyot sohasida maxtumqulishunoslik izchil taraqqiy etib kelmoqda. Bu esa, shoir ilgari surgan ezgu g‘oyalarni ochib berish, yosh avlodga tushuntirib, ularni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yaqinda “Xorazm yoshlari” nashriyot-matbaa uyi tomonidan Maxtumquli tavalludining 300 yillik to‘yi munosabati bilan uchta tuhfa hozirlangani ham ana shunday xayrli ishlarning davomi sifatida ahamiyatlidir. Vohalik ijodkor-tarjimon Vohid Sulton nashrga tayyorlagan Maxtumquli saylanmasining I jildi 25 bosma taboqda chop etilgan. E’tiborli jihati shuki, ushbu saylanma turkman va o‘zbek tillarida kitobxonlarga tuhfa qilindi. Shuningdek, to‘rtko‘llik maxtumqulishunos, shoir va tarjimon Islom Bobojonovning “Maxtumquliga ehtirom” nomli kitobi ham o‘zbek va turkman tillarida nashr etildi. Maxtumquli saylanmasining II jildi esa, ana shu sharafli ishlarning davomi sanaladi. Maxtumquli saylanmalarida shoirning asliyatdagi she’rlari va ularning o‘zbekcha tarijimasi bilan tanishish mumkin.

“Maxtumquliga ehtirom” kitobida esa shoirning hayot yo‘li atroflicha yoritilib, uning hikmatlari tahlil qilinadi. Ul zotning tasavvuf namoyandasi – ulug‘ so‘fiy, avliyo ekanligi mazkur tadqiqotlar orqali ochib berilgan.

Ushbu salmoqli adabiy majmualar Turkmaniston va O‘zbekiston o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz. Zero, dunyoda do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilikdan ulug‘ ne’mat yo‘qdir.

Bir daryodan hovuchlab suv ichgan el,
Daryosi bir o‘zbek bilan
turkmanning.
Oy-u quyosh nurlari teng tushgan el,
Ziyosi bir o‘zbek bilan
turkmanning.

Erpo‘lat BAXT

Maxtumquli, xalq yodidan ayrilma!



MAXTUMQULI

KETSANG

Dedim: “Yuzi tobonim”. Dedi: “Go‘yo Menglixon!”
Dedim: “Qo‘yding armonga”. Dedi: “Ko‘ngildur vayron”.
Dedim: “O‘larman endi”. Dedi: “Qolarsan omon”.
Dedim: “Kipriklaring o‘q”. Dedi: “Qoshlarim kamon”.
Dedimki: “Libos kiymish”. Dedi: “To‘ni zarafshon”.

Dedim: “Yuzda xollar bor”. Dedi: “Yuzda gullar, hay”.
Dedim: “Qumri zabondir”. Dedi: “Shahddir tillar, hay”.
Dedim: “Kel, xabarlash”. Dedi: “Sezar ellar, hay”.
Dedim: “Ul ne sarvdir”. Dedi: “Nozik bellar, hay”.
Dedim: “Tovus ne joydin?”. Dedi: “Joyi – Hindiston”.

Dedim: “Kechang qorong‘u”. Dedi: “Uyquda oyim”.
Dedim: “Kimlar yasovul?”. Dedi: “Kiprigim – yoyim”.
Dedim: “Qayda maskaning?”. Dedi: “Lomakon joyim”.
Dedim: “Zarafshon erur?”. Dedi: “Kavsardir loyim”.
Dedim: “Undan ber manga”. Dedi: “Istarmish bejon”.

Dedim: “Bu ne tutundir?”. Dediki: “Qora morlar”.
Dedim: “Qo‘rqaman undan”. Dedi: “El-u yurt chorlar”.
Dedim: “So‘zing aslini”. Dedi: “So‘rar, tuyarlar”.
Dedim: “Sirni fosh etding”. Dedi: “Aytmish ayyorlar”.
Dedim: “O‘lim bor senga”. Dedi: “Senga ham farmon”.

Dedim: “Ey Maxtumquli!” Dedi: “Ko‘zlar yosh bo‘lar!”
Dedim: “U ne yigitdir?” Dedi: “Sizga bosh bo‘lar”.
Dedim: “Yaqindir Ka’ba?” Dedi: “Eski tosh bo‘lar”.
Dedim: “Yaxshi zamondir”. Dedi: “Bu ham tush bo‘lar”.
Dedim: “Endi ketarman”. Dedi: “Ketsang, bor omon”.

KO‘RING

Har yigitning aslin bilay desangiz,
Ma’rakada o‘tirib-turishin ko‘ring.
Birov bilan oshno bo‘lay desangiz,
Avval o‘z so‘zida turishin ko‘ring.

Uzoq-yaqin yo‘lga borar bo‘lsangiz,
Mardlik qilichini solar bo‘lsangiz,
Bir bedovni saylab olar bo‘lsangiz,
Siynasin, sag‘risin kerishin ko‘ring.

Bir pul tushsa bir iflosning qo‘liga,
Ko‘ksin ochib, kezar qishning yeliga,
Xaridor bo‘lsangiz qizga, kelinga,
Adabin, ikromin, o‘tirishin ko‘ring.

Mard yigitning ot-yarog‘i shay bo‘lsa,
Yetishar har yerda hayda-hay bo‘lsa,
O‘zi Hotam bo‘lib, yana boy bo‘lsa,
Chor atrofdan mehmon kelishin ko‘ring.

Bir nechani qilding moli bisyori,
Bir nechani qilding bir pulning zori,
Yaxshi-yomon – odam zotining bori
Navbat bilan o‘tib borishin ko‘ring.

Tangri bezor, biling, zakotsiz boydan,
Siz ham qoching zinhor ul kelar joydan,
Mardga bir ish tushsa, ko‘rar Xudoydan,
Nomardning hamrohdan ko‘rishin ko‘ring.

Nomard yurar mudom o‘limdan qochib,
Uyiga kelganda zahrini sochib,
Mard yigit mehmonga quchog‘in ochib,
Nomardning mehmondan qochishin ko‘ring.

Zolimlar unutar zikri Olloni,
Arzon olib, qimmat sotar g‘alloni;
Sudxo‘r noinsoflar halol tilloni
Harom foydasiga berishin ko‘ring.

Mard yigitning ishi suhbat – soz bo‘lar,
Ko‘ngli qish bo‘lmayin, doim yoz bo‘lar,
Yaxshining ko‘nglida gina oz bo‘lar,
Yomonning kunda bir urushin ko‘ring.

Qadrdon, qardoshdan uzoqda turib,
Qadrsiz yot bilan qarindosh bo‘lib,
Maxtumquli, nosozlarga duch kelib,
Xo‘janing, sayyidning yurishin ko‘ring.

Jumaniyoz SHARIPOV tarjimasi

ADOLAT YAXSHI

Aslo odamzodga achchiq so‘z qilmang,
Faqir-u miskinga dalolat yaxshi.
Baxilga uchramang – kular yuz bo‘lmang,
Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.

Yetimni ko‘rganda kular yuz bo‘lgil,
Qo‘ldan kelsa, unga taom-tuz bergil,
G‘amginni ko‘rganda shirin so‘z bergil,
Chorasiz qullarga himoyat yaxshi.

Yigit uldir, so‘zga aylasa amal,
Qo‘ldan kelmas ishga etmasa jadal,
Allohning amriga qilmagil badal,
Bekka – saxo, shohga – adolat yaxshi.

G‘ariblik bir darddir – odam o‘ldirmas,
O‘ldirmas, hayotda lekin kuldirmas,
Bo‘riga ajzini it ham bildirmas,
Albatta, dushmanga siyosat yaxshi.

Maxtumquli, shukr, shirin til berdi,
Daraxtlar ko‘karib, samar, gul berdi,
Go‘ro‘g‘li Rayhonga qanday yolbordi? –
“Omonliq” deganga diyonat yaxshi.

Mirzo KENJABEK tarjimasi

AYRILMA

Mast bo‘lib yurgancha begona yurtda,
Unib-o‘sgan o‘z yurtingdan ayrilma.
Mag‘rur kaklik kabi nafs degan dardda
Domga tushib, qanotingdan ayrilma.

Tavakkal et – xalqqa siring berib bor,
Sabrli bo‘l, besabrlik ham bekor,
Har qayerga borsang, nasibangdir yor,
Boy bo‘lay deb, izzatingdan ayrilma!

Nomardlar ham yaramaslar, nochorlar,
Tuzing ichib, ishing bo‘lsa qocharlar,
Siringni fosh etib, aybing ocharlar,
Qadring bilgan ulfatingdan ayrilma!

Gadolarning ko‘ngli shohlikni tilar,
Nodon ko‘ngli yolg‘on so‘zni rost bilar,
Beqadrlar dushmaningga do‘st bo‘lar,
Ta’lim bergan ustodingdan ayrilma!

Birov qashshoq bo‘lib, birov boy bo‘lar,
Har kishining baxti-iqboli kular,
Boshga nima kelsa, tilingdan kelar,
Maxtumquli, xalq yodidan ayrilma!

OSHIQ BO‘LMISHAM

Ey, yoronlar, bir yuzi gul oya oshiq bo‘lmisham,
Barchaning maqsudi – gul-ra’noya oshiq bo‘lmisham,
Bulbulam bog‘ ichra – bir g‘avg‘oya oshiq bo‘lmisham,
O‘zi g‘oyib, zulflari yaldoya oshiq bo‘lmisham,
Manzilim bog‘ ichradir, sahroya oshiq bo‘lmisham.

Qay kuni keltirdi charx meni fano tuprog‘ina,
Kuydi bag‘rim doimo Makka-Madina tog‘ina,
Bulbul o‘ldim, sayradim, kirdim Eramning bog‘ina,
Mubtalo o‘ldim u kun g‘am ahlining tuzog‘ina,
Yuz balo, kulfat-la bir savdoya oshiq bo‘lmisham.

Ko‘nglim ichra yor g‘amidir – manzilim sahroda, hay,
Kiyganim g‘am-g‘ussadir – aylanmisham Farhoda, hay,
Soldi ishqing, dilbaro, jon-u jigarim o‘da, hay,
Vodarig‘o, kechdi umrim zoye – berdim boda, hay,
Ohi ko‘p, afg‘oni ko‘p bir ko‘ya oshiq bo‘lmisham.

Bilmadim: ne bahr-u bardir, ne muazzam tog‘dir-ey,
Oldi ko‘nglim, ketdi aqlim, tan mudom nosog‘dir-ey,
O‘xshashi yo‘qdir uning hech – qumri, bulbul, zog‘dir-ey,
Sochining har tori yuz ming er uchun tuzog‘dir-ey,
Qaddi-qomati baland, zeboya oshiq bo‘lmisham.

Do‘st, havoyi vaslini men muncha chandon istaram,
Domi zulfing qasdina o‘zimni zindon istaram,
Dema g‘amdan bir zamon ko‘nglimni xandon istaram,
Bir g‘arib oshiq manam, yor, sani sandan istaram,
Kecha-yu kunduz, biling, hu-hoya oshiq bo‘lmisham.

Istamas yorim meni – ul yora zorim yo‘q mening,
Qolmisham hayron bo‘lib, o‘zga madorim yo‘q mening,
Oldi jonim ishqing o‘ti – ixtiyorim yo‘q mening,
Kelsa – aqlimni olar, ketsa – qarorim yo‘q mening,
G‘amzasi – o‘q, qoshlari ul yoya oshiq bo‘lmisham.

Aytadir Maxtumquli: man unda kona uchradim,
Sayr etib bordim charx uzra – lomakona uchradim,
Chun meni rasvo qilibdir, ishqi kona uchradim,
Yetmish ikki shahr ila ming bir do‘kona uchradim,
Shuncha sargardon safil-u zoya oshiq bo‘lmisham.

Ergash OCHILOV tarjimasi

TADQIQOT

CHIN ZIYOLI G‘OYASI

yoki jadidlarning xayriya jamiyatlari haqida



“Milliy g‘oya”ning falsafiy ma’nosi bir millatning birlashuvi va milliy o‘zlikni anglab yetishni bildiradi. Jadidlik harakati asoschilaridan biri Ismoil G‘aspraliga ko‘ra, milliy g‘oya millat taraqqiyoti uchun zarur va eng muhim ishlarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan dastlabki poydevorni yaratishni anglatadi. G‘aspralining Turkistondagi eng yaqin hammaslagi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’kidlashicha, ta’lim maktablari va millatning isloh etilishi milliy g‘oya bo‘lib, uni targ‘ib qilish millatning har bir vakili uchun ham farz, ham qarzdir.

Yosh avlodning jahon tillarini chuqur o‘zlashtirishi o‘z iqtidorini namoyon etishning asosiy yo‘llaridan biri. Shunday bo‘lsa-da, bugungi kunda jadid ma’rifatparvarlarining boshlang‘ich ta’limni ona tilida berishga mo‘ljallangan dasturi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Jadidlar ushbu dasturni tizimli amalga oshirishda millat foydasi uchun kerakli “umummilliy g‘oya” ishlab chiqish va uni targ‘ib qilish yo‘llarini qidirdi. O‘z navbatida, millatni muhim bir “umummilliy g‘oya” ostida birlashtirish ishiga jamiyatning ziyoli qatlamini keng jalb qilish zarur edi.

Dastavval jadidlar o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishda eng muhim vosita bo‘lgan xayriya jamiyatlarini tuzishga kirishadi. Turkistonda musulmon xayriya jamiyatlarining tarixi XIX asrning so‘ngidan boshlanadi. Samarqand shahar qozisi Nizomiddinxo‘ja tashabbusi bilan 1894-yili 1500 so‘m mablag‘ jamlanib, mahalliy aholi uchun “Dorul-ojizin” ta’sis qilindi. Oradan ikki yil o‘tib, 1896-yili Farg‘ona viloyati O‘sh shahrida mahalliy musulmonlar tomonidan birinchi “Dorul-ojizin” tashkil etildi. Ushbu “Dorul-ojizin”ning moliyaviy ta’minotini shahar savdogarlari o‘z zimmalariga olishgan. Yuqoridagi ma’lumotlar Turkiston general-gubernatorligida mahalliy xalq tashkil etgan zamonaviy xayriya muassasalari to‘g‘risidagi ilk gazeta xabarlari bo‘lib, bu “Dorul-ojizin”larning asosiy vazifasi shahar aholisining yordamga muhtoj qatlamini issiq ovqat va boshpana bilan ta’minlashdan iborat edi. 1897-yili amir Abdulahadxon ham Buxoro shahrida kam ta’minlangan va nogironlarga mo‘ljallangan “Dorul-ojizin” ta’sis etdi. Bu xayriya muassasasida muhtojlarga ikki mahal issiq ovqat amir hisobidan berilar edi. Ayni shu vaqtdan e’tiboran Turkistonda mahalliy xalqlarning zamonaviy musulmon xayriya tizimida yangi davr boshlandi.

Turkistonda keng qamrovli zamonaviy xayriya jamiyati ta’sis qilish masalasi birinchi bor 1906-yili “Taraqqiy” gazetasida kun tartibiga qo‘yildi. Ana shunday keng qamrovli musulmon xayriya jamiyati oradan 3 yil o‘tib, 1909-yili 15-iyul (ayrim ma’lumotlarda 10-avgust) kuni Toshkentda “Jamiyati imdodiya” nomi ostida joriy qilindi. Ushbu muassasa ta’sischilari boshida Toshkent jadidlarining yetakchisi Munavvar qori Abdurashidxonov turdi. “Jamiyati imdodiya”ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lgan: 1) mahalliy xalqning barcha qatlamlari ta’lim olishi uchun turli yo‘nalishdagi maktablar tashkil etish; 2) yo‘qsil bolalar va yetimlarga g‘amxo‘rlik qilish; 3) turli boshpanalar bunyod etish; 4) musulmon talabalariga moddiy yordam ko‘rsatish va hokazo.

Albatta, har qanday xayriya ishini amalga oshirish uchun mablag‘, dastak lozim. Shu ma’noda Behbudiy matbuot sahifalarida e’lon qilgan o‘nlab maqolalarida savdo va ishlab chiqarish vakillarini boshlangan xayriya ishlarini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga da’vat qiladi. U shunday maqolalaridan birida *“...Turli davrlarda taraqqiyot va islohotlarni sarmoya va uning vakillari dastaklab kelgan. Millatga dalda berish, maktablar islohi, yoshlarimizni Yevropa oliy o‘quv yurtlariga kirishlariga tayyorlash, umummilliy ishlarni amalga oshirish uchun bizga “Xayriya jamiyatlari”, kutubxonalar, jamg‘armalar, turli to‘garaklar, gazetalar, jurnallar, nashriyotlar va hokazolar kerak. Millatning taraqqiyoti mana shu yo‘l bilan amalga oshiriladi va bu ishlar uchun mablag‘ zarur. Mablag‘ esa bizning boylarimiz qo‘lida”,* deb yozdi va ularni millatni “uyg‘otish”ga qaratilgan ushbu xayrli ishlarni qo‘llashga chaqirdi.

“Jamiyati imdodiya”ning faoliyati juda og‘ir kechdi. Jamiyat daromadining asosini a’zolik badali tashkil qilgani uchun ham u ta’sis etilganidan boshlab bir yarim yil davomida yangi a’zolar jalb qilish va keyingi faoliyatini yurgizish uchun mablag‘ yig‘ishdan boshqa hech qanday faoliyat olib bormadi. Turkistonlik jadidlar Ichki Rossiya musulmonlari amalga oshirgandek sadaqa va zakotni xayriya jamiyati foydasiga jalb qilishga muvaffaq bo‘la olmadilar. Buning chuqur ijtimoiy muammolari bor edi. Shaharning katta boy va savdogarlari jamoat ishlariga bosh qo‘shmadi va bunday xayriya ishlariga mablag‘ sarf qilishdan o‘zlarini chetga tortdilar.

Behbudiy Turkiston ziyoli qatlamining bu tariqa ish tutganini *“...har kim o‘z foydasi va shaxsiy ishi bilan band. Bizda umummilliy yoki diniy va milliy ishlar foydasiga harakat qiladigan odamlar yo‘q. Bizda, boshqa millatlarda bo‘lganidek, millatning taraqqiyoti uchun jon kuydiradigan kishilar yo‘q”,* deb tushuntirishga harakat qildi.

“Oyina” jurnalida chop etilgan bir maqolada Turkiston musulmonlari shartli ravishda uch guruhga bo‘lingan edi: 1) badavlat insonlar: yer egalari, savdogarlar, ishlab chiqaruvchilar; 2) turli kontora yoki alohida odamlar qo‘lida xizmat qilayotgan o‘qimishlilar; 3) “millat” tushunchasi haqida umuman tasavvurga ega bo‘lmagan oddiy xalq. Bu tasnif muallifining fikricha, agar mana shu guruh vakillari birlashsa va tillari va dillari bilan moddiy-ma’naviy yordam ko‘rsatsa, millat manfaati va ravnaqi uchun istalgan ishni amalga oshirish mumkin.

Turkistonda milliy g‘oyani xalq ongiga singdirish va uni keng targ‘ib qilishga katta to‘siqlardan biri milliy matbuotning yo‘qligi edi. Ichki Rossiya musulmonlari sof siyosiy ishlar bilan shug‘ullangan vaqtlarda Turkiston jadidlari va ziyolilari yig‘ilib qolgan muammolarni hal qilish uchun turli jamiyatlar tuzish targ‘ibotini davom ettirayotgan yoki ayrim joylarda endi boshlayotgan edilar. Jadidshunos olim Begali Qosimovning fikriga ko‘ra, Turkiston jadidlarining gazeta, xayriya jamiyatlari ta’sis etish, yangi usul maktablarini yoyish, teatr ishlari va boshqa barcha harakatlari bir milliy g‘oya uchun xizmat qildi. Olimning ta’kidlashicha, har bir g‘oyaning milliy g‘oyaga aylanishi uchun u ikki talabga javob berishi kerak: 1) g‘oya millatning haqiqiy ehtiyojidan, turmush tarzidan, asriy an’analaridan, va albatta, imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak; 2) ushbu g‘oya millat tomonidan anglab yetilishi, boshqa so‘z bilan aytganda, milliylashtirilishi zarur. Ya’ni g‘oya millatning har bir vakili yuragiga yetib borishi lozim.

Behbudiy “A’molimiz yoinki murodimiz” sarlavhali maqolasida turkistonliklarning turli tadbir, to‘ylaridan tortib milliy o‘yinlarigacha bo‘lgan har kunlik turmush tarzini tahlil qilar ekan, xalqni ko‘zini ochib yon-tevaragidagi millatlar qanday yashayotganiga qarashga chaqiradi. U xalqni isrofli tadbirlardan voz kechib, ularga sarf qilinadigan mablag‘ni iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga milliy kadrlar tayyorlash maqsadida davlat ta’lim muassasalarida bolalarning o‘qishi uchun yo‘naltirishga da’vat etadi. Behbudiy bu harakatlarini umummilliy ishlar, oliy maqsadlar, xohishlar va intilishlar deb ataydi.

Badiiy adabiyot, xususan, she’riyat milliy g‘oya targ‘ibotida juda katta rol o‘ynadi. Jadid shoirlari birinchi navbatda yangi ilm-fanni ulug‘ladi va xalqni uni o‘rganishga targ‘ib qildi. Ular zamonaviy ilm-fanga taraqqiyotga erishishning birdan bir yagona yo‘li deb qaradilar. Siddiqiy-Ajziy she’rlaridan birida turkistonliklarni “bir g‘oya atrofida jipslashib, bir yo‘ldan bormoqni” va bir “oliy maqsad”ga intilib, u uchun kurashishga chaqirdi.

Turkistonlik jadidlar eng avvalda musulmonlarga siyosiy huquqlar berilishi tarafdorlari tomonida turmadilar. Sabab, savodsiz, zamonaviy ilm, ma’rifatdan bexabar xalqqa siyosiy huquq berilishi hech bir muammoning hal qilinishiga olib kelmasligini ular juda yaxshi tushunardi. O‘sha davrda zamon tili bo‘lgan rus tili va rus qonunlarini bilmaslik va eng asosiysi – musulmonlarning zamonaviy bilimlardan xabarsizligi qo‘lga kiritilgan barcha siyosiy huquqlarni yo‘qqa chiqarishi aniq edi. Buning natijasida esa “birgina rus ma’muri qirq o‘qimishli musulmonni jilovida ushlab yurishda davom etaveradi”. Shuning uchun ham Turkiston jadidlari milliy g‘oyani targ‘ib qilishdagi asosiy urg‘uni xalq orasida zamonaviy ilm, ma’rifatning targ‘ibotiga qaratdi.

Buxoro jadidlarining mafkuraviy yetakchisi hisoblangan Abdurauf Fitrat “Qur’on” sarlavhali maqolasida millat taraqqiyoti xususida fikr yuritar ekan, o‘z fikrlarini ilm o‘rganishni ulug‘lovchi Qur’on oyatlari orqali tushuntirishga harakat qiladi. Fitrat Qur’onni istalgan millatni saodatli va kuchli qilishga qodir bo‘lgan ijtimoiy qonunga qiyoslaydi. Bundan tashqari, u musulmonlarning o‘sha vaqtdagi ahvolini Islom diniga qadar bo‘lgan arablarning “johiliyat davri”ga o‘xshatadi. Fitrat Qur’onda barcha musulmonlar saodat va taraqqiyotga erishish uchun harakat qilishlari kerakligiga chaqiriq ko‘radi. Maqolasining so‘ngida Fitrat turkistonliklarga savol bilan murojaat qiladi: “Ajabo, biz o‘zimizni inson deb atab, haqiqiy inson kabi harakat qilishni xotirga keltirmaymizmi? Nahotki, biz qiyomatgacha o‘zimizning johilligimizni tushuna olmasak va sabablarini qidirishga hamda ularni hal qilish choralarini topishga qodir bo‘lmasak?”

Turkiston uchun millat va Vatan nima ekanini aniq tasavvur qila oladigan, o‘z xalqiga, yurtiga sodiq o‘qimishli va ziyoli yosh avlod kerak edi. “Sadoyi Turkiston” gazetasida yozilganidek, bu yosh avlod o‘zining xizmati, harakati, yordami va sodiqligi bilan haqiqiy ziyoli ekanligini ko‘rsatishi kutilardi.

Turkiston jadidlari milliy g‘oyaning samarali targ‘iboti uchun 1914-yildan boshlab turli nashriyot, shirkat va kutubxonalar tashkil qila boshladilar. Bunday muassasalarning asosiy maqsadi milliy g‘oya targ‘iboti va siyosiy irodaning mustahkamlanishiga xizmat qiladigan gazeta, jurnal va kitoblarni nashr qilish va aholi orasida tarqatishdan iborat edi. Bunda asosiy e’tibor o‘rta avlod musulmonlar auditoriyasiga qaratildi. Ana shunday tashkil etilgan muassasalar qatoriga Qo‘qondagi “G‘ayrat” kutubxonasini, Toshkentdagi “Nashriyot” shirkatini, Buxorodagi “Ma’rifat” kutubxonasi va “Barakat” kooperativini misol qilish mumkin.

Turkiston jadidlari boshlang‘ich pallada ta’lim, zamonaviy bilimlar targ‘ibi hamda mahalliy aholining turmush sharoitini o‘zgartirishga qaratilgan dastur asosida ish olib bordi. Aynan mana shu masalalar jadidlarning milliy g‘oyasi asosini tashkil etdi. Jadidlarning g‘oya va maqsadlari, ular targ‘ib qilgan fikrlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. Jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati, ijodi va hayot yo‘li bilan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni keng oshno qilish, jadidlar ta’biri bilan aytganda, “millat ustuni” bo‘lgan ziyolilarga katta mas’uliyat yuklaydi.

Zaynobiddin ABDIRASHIDOV,
Anqara Hoji Bayram Vali universiteti professori

“YO‘LINGIZ OYDIN, SAFARINGIZ BEXATAR BO‘LSIN!”



Boshlanishi 1-sahifada.

Yoki chekka qishloqda yashovchi fuqaro shaxsiy yengil avtomashinasi bilan tuman markazidagi ularning “faoliyatini muvofiqlashtiruvchi” qandaydir MChJlarga a’zo bo‘lishi, har kuni ertalab o‘sha uyushmaga borishi, kunlik yo‘l varaqasini olishi va ma’lum miqdorda to‘lovni amalga oshirishi shart edi. Shundan so‘ng mijoz izlab ketardi. Yana mazkur uyushmalarning xizmat ko‘rsatish hududlari chegaralangan bo‘lib, kirakash bilmasdan o‘sha hududdan tashqariga chiqsa jarimaga tortilar, hatto litsenziyasi bekor bo‘lardi. “Daryotrans” otliq qandaydir tashkilot har oyda ma’lum yo‘nalishlarga tanlov e’lon qilar, unda g‘olib chiqqan MChJlar o‘zlariga a’zo kirakashlarni shu yo‘nalishlarga xizmatga qo‘yardi. Bundan kirakash istiqomat qilayotgan hudud bilan u xizmat ko‘rsatishi kerak bo‘lgan hudud oralig‘i hech kimni qiziqtirmasdi. Tekshirishlardan bezib ketgan kirakashlar majburan qo‘shni tumandagi shunday jamiyatlarga a’zo bo‘lishar, bu esa yo‘lkira haqiga sezilarli ta’sir ko‘rsatardi.

Kirakashlik tizimini jilovlagan bu usul uzoqqa bormadi – haydovchi-yu yo‘lovchilar noroziliklariga sabab bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari tomonidan o‘z shaxsiy yengil avtomashinasida xizmat ko‘rsatayotgan fuqarolarga imtiyozlar va erkinliklar berilganiga uch yildan oshdi. Endi shaxsiy mashinasida yo‘lovchi tashish niyatida bo‘lgan fuqaro yil davomida bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaricha pul to‘laydi va o‘zi istagan yo‘nalishda xizmat ko‘rsataveradi. Ular “o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar” toifasiga kiritilib, shu davr kirakashning ish stajiga qo‘shilishi belgilandi.

Yaqinda yurtimizda to‘rt yuz mingdan ko‘proq fuqaro xizmatning shu turi bilan mashg‘ulligi ochiqlandi. Agarda har oilada o‘rtacha besh kishi istiqomat qilishini aytsak, bugun yurtimizning salkam ikki million fuqarosi kirakashlik xizmatidan topilgan daromad hisobidan tirikchilik qilayotgani ma’lum bo‘ladi.

Bular – rasman ro‘yxatdan o‘tgan, xizmat ko‘rsatish uchun litsenziyaga ega fuqarolar. Litsenziyasiz “xizmat ko‘rsatib” yurgan fuqarolar ham ozmas. Ayniqsa, bu holat xorij davlatlariga yo‘lovchi tashiyotgan kirakashlar orasida juda ko‘p. Afsuski, bugun boshqa sohalarga qaraganda ilgarilab ketgan ushbu tizim hali tartibga solinmagan. Bu, ayniqsa, kirakash va yo‘lovchi orasida manzilga eltib qo‘yish xizmati uchun to‘lanadigan yo‘l haqi masalasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Kirakashlarning “kelishib olib ketish” taklifi aksar hollarda yo‘lovchilar noroziligiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bayram kunlari yo‘l haqi keskin oshib ketishi haqida ijtimoiy tarmoqlarda bong uriladi.

Ma’lumki, har bir xizmatda “tannarx” degan tushuncha bor. Tannarx – xizmat ko‘rsatuvchining ketgan xarajatlari – yonilg‘i va vaqtdan kelib chiqib belgilanadi. Aytaylik, Xorazmdan poytaxtga qatnaydigan kirakashlar bir tomonga uch yuz ming so‘m atrofida yonilg‘i (metan gazida yuradigan mashina egalari) sarflashadi. Yana yo‘lda ovqatlanishi, mijoz kutib poytaxtda qolgan vaqti sarf-xarajatlari umumhisobda besh yuz ming so‘mni tashkil qiladi. Yo‘l haqi esa har yo‘lovchiga hozirda o‘rtacha 250 ming so‘m qilib belgilangan. (Bu yo‘lovchi poyezdning umumvagoni uchun patta narxi bilan teng).

Demak, to‘rt yo‘lovchi uchun bir million so‘m yo‘l haqi olgan kirakash o‘n besh soat ichida yarim million so‘m daromad topyapti. (Kirakashlarda “pochta xizmati” ham bor, ular bundan ham yaxshigina daromad topishadi).

Ammo, yaqin masofalarga qatnaydigan kirakashlar yo‘l haqini shaharlararo xizmat ko‘rsatayotgan hamkasblariga qaraganda ikki va hatto, uch hissa ko‘proq olishadi. Masalan, Urganchga kirakash mashinada ketsam ellik chaqirim masofaga 25 ming so‘m atrofida to‘layman. Shahar ichida uch chaqirimga bormoqchi bo‘lsam, kirakashlar 15 ming yo‘l haqi talab qilishadi. Yoki qishlog‘imizdan Hazoraspdagi mashhur bozorga qatnaydigan kirakashlar har bir yo‘lovchidan 15 ming so‘m olishadi. Oraliq masofa bor-yo‘g‘i 12 kilometr.

Masofalar oralig‘i, ketadigan sarf-xarajat, ya’ni tannarx orasida farq qanchalik katta ekanini ko‘ryapsizmi? Yo‘lovchi, ayniqsa, har kuni ishga qatnaydigan fuqarolar bundan tabiiy ravishda norozi bo‘lishadi-da!

Zamonaviy texnologiyalar bu tizimda xizmat ko‘rsatuvchi va yo‘lovchi mushkullarini osonlashtirishda katta yengilliklar yaratdi. Masalan, telegram ijtimoiy tarmog‘ida turli yo‘nalishlar bo‘yicha alohida muloqot guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Guruhda bir kecha-kunduzda mingdan oshiq xabar yoziladi. Kirakashlar qaysi soatda yo‘lga chiqishi, mashina rusumi, yaratilgan sharoitlar haqida ma’lum qiladi. Shu tariqa yo‘lovchi va haydovchi muloqotga kirishib, manzil va yo‘lkira narxi kelishiladi.

Boshqa hududlarda ham xuddi shunday tizim allaqachon yaratilgan, mijozlar va xizmat ko‘rsatuvchilar yakdilligi yo‘lga qo‘yilgan. Axborot texnologiyalar taraqqiyoti rivojlangan davlatlarda xizmat ko‘rsatishning bu turi shu yo‘sin tartibga solinganiga ancha bo‘ldi. Ularda “pitak” deb atalgan kirakashlikning ibtidoiy ko‘rinishlari tarixga aylanib ulgurdi.

Xo‘sh, bizda bu tizim qachon qat’iy tartibga solinadi? Axir, bu har ikki tomon uchun ham manfaatli-ku! Yo‘lovchi uyida, yo‘l bo‘yida ulov kutib turmaydi, yana narxdan norozi bo‘lmaydi. Kirakashlar taksi xizmatiga ixtisoslashgan zamonaviy mobil ilovalar orqali muntazam mijozga, eng asosiysi, topgan daromadi hisobidan kelajakda nafaqaga chiqqanida tayinli pensiyaga ega bo‘ladi.

...Shular haqida o‘ylab yurganimda ijtimoiy tarmoqlarda yurtimizda xuddi shu turdagi yangi “Fasten” atalmish kirakashlik kompaniyasi ish boshlagani haqida o‘qib qoldim. “Yandeks” yoniga raqobatchi bo‘lib “Fasten” qo‘shildi.

Nega “Yandeks”? Nega “Fasten”? Nimaga “Ravon yo‘l”, “Tezkor” yoki “Oq yo‘l” emas!

Ushbu tizimda xizmat ko‘rsatayotgan yengil mashinalarning aksari o‘zimizda ishlab chiqarilsa, xizmat ko‘rsatayotgan qora-ko‘zlar ham o‘zimiznikilar bo‘lgani holda nega atamalar xorijiy tilda bo‘lishi kerak?

To‘g‘ri, bu kompaniyalar hali bizda xizmatning shu turi endi tartibga solinayotgan vaqtda chetdan kirib kelishdi, xizmat sifati, nazorati bo‘yicha ibrat ko‘rsatishdi. Ammo-lekin, vaqt tezkor ilgarilab ketayotgan hozirgi davrda shunga o‘xshagan bir-ikki kompaniyaning tizimni monopoliyaga aylantirishi qanchalar to‘g‘ri? Nahotki o‘zimizning sarmoyadorlar milliy atamali shunday kompaniyalar tashkil qilishlari mumkin emas. Bu bilan tizimda chinakam raqobat paydo bo‘ladi. Raqobat esa xizmat sifati va narxiga keskin ta’sir ko‘rsatadi. Bozor siyosatining talabi ham shu!

...Poytaxtdan qaytish uchun Janubiy vokzalga kirakash mashina chaqiraman. Telefonimda “Ravon yo‘l” sizga xizmat qilishga tayyor! Besh daqiqada falon raqamli, falon rusumli mashina yetib boradi. Manzilgacha xizmat haqi 52 ming 500 so‘mni tashkil qiladi. Yo‘lingiz oydin, safaringiz bexatar bo‘lsin!” degan yozuv paydo bo‘ladi. Ancha yengil tortaman, shuurimda milliy g‘urur uyg‘onadi – “Ravon yo‘l”ni ilhaq kuta boshlayman...

Ushbu orzum qachon amalga osharkin?

Bir yo‘lovchi o‘laroq shu kunlarni orziqib kutyapman.

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

QATAG‘ON QURBONLARI

OTISHGA HUKM QILINGAN

olim Nikonor Yaroshevichning achchiq qismati

Yaroshevich Nikonor Kazimirovich 1885-yil 11-iyulda Minsk guberniyasi, Novo Sverjen bo‘lgasida belorus dehqoni xonadonida dunyoga kelgan. 1903–1906-yillarda Chernigov guberniyasidagi Gluxov o‘qituvchilar institutida o‘qigan. 1906–10-yillarda Minskdagi Golovenchiskiy, Kiyevdagi Shosten va Guluxova bilim yurtlarida dars beradi. Shundan so‘ng Moskvada qishloq xo‘jaligi institutiga kirib, 1914-yil uni bitiradi. Talabalik yillarida belorus yoshlari to‘garaklarida faol ishtirok etdi.



“Наша Нива” gazetasida o‘z mulohazalarini yozib bordi. Ayni paytda Xarkov guberniyasi, Lebedin uyezdida agronom sifatida ish olib bordi, Minsk, Smolenskiy va Xarkov shaharlaridagi turli o‘quv muassasalarida ma’ruzalar o‘qidi. 1915-yil Moliya vazirligi taqdimotiga ko‘ra davlat bankining Sumi bo‘limi qoshidagi qishloq xo‘jaligi agronomiyasi mayda kredit yo‘nalishiga inspektorlikka tayinlanadi. Yaroshevich Nikonor Kazimirovich 1915–17-yillar Birinchi jahon urushi munosabati bilan harbiy xizmatga chaqirilib, artelleriya sohasida xizmat qilgan. Nikonor Kazimirovich 1917-yil fevral inqilobidan so‘ng harbiy xizmatdan ozod etildi. 1917-yil eserlar partiyasi a’zosi sifatida Minsk guberniyasi uyezd zemskiy boshqaruvi raisi bo‘ldi. 1918-yil mart oyi boshlarida Belorus Xalq Respublikasi Radasi a’zosi va hukumatda Yer ishlari xalq komissarligida iqtisodiy bo‘lim mudiri vazifasida ish olib borgan. 1919-1920-yillar polyak-sovet urushi yillarida mustaqil Belorussiya respublikasi tarafdori bo‘ldi. 1920-yil sovet hokimiyati mustahkamlanib borishi ortidan siyosatdan chekinib, uning faoliyatida ilmiy yo‘nalish ortib bordi. U 1920-yil noyabrda ochilgan Belorus politexnika institutining birinchi rektori vazifasiga tayinlandi. Ayni paytda Minsk xalq ta’limi institutida, Belorus ishchi bilim yurtida ta’lim berar, BSSR Maorif xalq komissarligida kasbiy-texnik ta’lim bo‘limi mudiri vazifasini ham bajarar edi.

Yaroshevich Nikonor Kazimirovich 1920–22-yillar Belorus politexnika instituti rektori, 1922-yildan Belorus erkin iqtisodiyot jamiyati tashabbuskori va birinchi raisi bo‘ldi. U belorus vatanparvari sifatida ta’limda belorus tilining ustuvorligi uchun kurashdi. 1920-1921-yillarda eserlar partiyasining dasturidan kelib chiqib o‘z yurtida iqtisodiy ta’minotni yaxshilash va g‘arbga talabalar yo‘llash yo‘lidan bordi. Biroq, bolsheviklarning rejasi boshqa edi. 1921-yil martda BSSR GPU qarori bilan Nikonor Kazimirovich aksilsovet faoliyatda ayblanib Minskdagi Pishalov turmasiga tashlandi. Faqat BPI, Mina va Belorus ishchi bilim yurtlarining 38 nafar o‘qituvchilari talabi bilan ikki oylik hibsdan so‘ng ozodlikka chiqishga muvaffaq bo‘ldi.

Yaroshevich Nikonor Kazimirovich 1923-yil yanvarida BSSR GPUning qarori bilan RSFSR JKning 58-moddasi, 10 – bandi bilan 3 yilga Toshkentga surgun qilinadi. 1923-yil Toshkentga ko‘chib kelgan Nikonor Kazimirovich avval O‘rta Osiyo ko‘rgazma muassasasida iqtisodiy bo‘lim boshlig‘i sifatida ish boshladi. 1924-yil 3-oktyabrdan O‘rta Osiyo davlat universiteti professori va boshqaruv a’zoligiga saylanadi. 1925-26-yillar O‘zSSR yer islohotlari davrida Sredazbyuroning maslahatchisi bo‘ldi. Shundan so‘ng O‘zSSR qishloq xo‘jaligi irrigatsiya va mexanizatsiya instituti professori, 1930-1931-yillar qishloq xo‘jalik ilmiy tadqiqot instituti professori va Iqtisodiyot ilmiy tekshirish instituti direktori o‘rinbosari vazifalarida ish olib bordi. Biroq, yana chaquvlar asosida qamoqqa olinib oilasi bilan Toshkentdan ko‘chirilib qishloq hududlarda yashashga mahkum etildi. 1933-yil Toshkent shahriga qaytib, pedagogik faoliyatini davom ettirishga muvaffaq bo‘ladi. Ayni paytda O‘rta Osiyo davlat reja qo‘mitasiga mutaxassis sifatida ishga olinadi.

Yaroshevich Nikonor Kazimirovich 1937-yil 27-iyulda O‘zSSR JKning 62-, 63-, 67-moddalari hamda “chet el razvetkasi foydasiga josuslik qilish” kabi ayblovlar bilan qamoqqa olinadi. Shaxsiy anketasiga ko‘ra bu vaqtda uning oila a’zolari turmush o‘rtog‘i shifokor Shimonovskaya-Yaroshevich Vera Ivanovna (37 yosh) va o‘g‘li maktab o‘quvchisi Yuriylardan iborat bo‘lgan. Yillab cho‘zilgan so‘roqlarda unga o‘ng eser, 1920-yildan Polsha josusi, aksilinqilobiy tashkilot a’zosi kabi ayblovlar qo‘yildi. 1938-yil 7-oktyabr kuni soat 19:45 dan – 20:10 gacha davom etgan mash’um “uchlik” yig‘ini Yaroshevich Nikonor Kazimirovichni otuvga hukm qiladi va u shu kunning o‘zida otib tashlanadi.

Sovetlar mamlakatida Stalin vafotidan so‘ng boshlangan “iliqlik davri”ning ilk kunlarida Nikonor Kazimirovichning turmush o‘rtog‘i Shimonovskaya-Yaroshevich Vera Ivanovna 1956-yil 10-dekabr sanasi bilan Minsk shahri, Krasnoarmeysk 8/34 xonadondan sovet mamlakatining oliy idoralariga shikoyat arizasi yo‘llaydi. Belorussiya vrachlar malakasini oshirish instituti xirurgiya kafedrasi assistenti Vera Ivanovna o‘z arizasida turmush o‘rtog‘ining NKVD tomonidan qamoqqa olingani va 10 yilga qamoqqa hukm etilgan degan xabaridan buyon hech qanday darak bo‘lmaganini yozadi. Shundan so‘ng Yaroshevich Nikonor Kazimirovich ishi ham qayta ko‘rib chiqishga topshiriladi. Qayta so‘roqlar davomida uning do‘sti Novo Aleksandrovsk qishloq xo‘jalik institutini tugatgan, odessalik rus olimi, 1920–25-yillar Turkiston universiteti professori Kojanov Nikolay Nikolayevich: “*N.K.Yaroshevich SSSRning qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotni yaxshi bilgan iqtisodiy islohotchi olimlaridan, juda mehnatkash va ajoyib inson edi”,* deb ta’riflaydi. Qayta so‘roqlarda Yaroshevich Nikonor Kazimirovichning stalincha qatag‘on qurboni bo‘lganligi o‘z isbotini topdi va 1958-yil 4-fevralda SSSR Oliy sudi tomonidan oqlanadi.

Yaroshevich Nikonor Kazimirovich 1995-yil 8-dekabrda Minsk viloyat prokuraturasi tomonidan reabilitatsiya qilingan.

Bahrom IRZAYEV,
Qatag‘on qurbonlari xotirasi
muzeyi bosh ilmiy xodimi

YANGI NASHR

“OYDIN SO‘QMOQLAR ELCHISI”



So‘nggi yillarda jadidlar hayoti va ijodiga e’tibor kuchayib, bu borada ko‘plab tadqiqotlar olib borilyapti, ilmiy-badiiy, tarixiy-xronologik kitoblar chop etilyapti. Fidoyi ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o‘rganish, o‘rgatish masalalariga yurtimizning chekka hududlarida ham alohida e’tibor berilmoqda. Odatda jadid ma’rifatparvarlari haqida so‘z borganda nari borsa o‘n-o‘n beshta millat oydini yodimizga tushadi. Aslida bunday jonfido insonlar millatdoshlarimiz orasida ko‘pchilikni tashkil qilgan. Ular chekka-chekka qishloqlarda yashab ham hurriyat, yurt ozodligi va millat ma’rifati uchun kurashishgan. Yaqinda G‘ayratjon Erkaboyevning “Classic” nashriyotida chop etilgan “Oydin so‘qmoqlar elchisi” kitobining bosh qahramoni Ismoilxo‘ja Otaxo‘jayev ham o‘tgan asrning boshlarida yangi usul maktabini ochib, butun umrini millatdoshlarini savodli qilish, ziyo tarqatishga bag‘ishlagan.

Ushbu kitobda mohir pedagog, ma’rifatparvar Ismoilxo‘ja Otaxo‘jayevning Farg‘ona vodiysida zamonaviy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish borasidagi ibratli faoliyati va mashaqqatli izlanishlari, uning ko‘rgan-kechirganlari, oilasi, shogirdlari haqida qiziqarli ma’lumotlar jamlangan.

Kitobda keltirilishicha, Ismoilxo‘janing padari buzrukvori Otaxo‘ja eshon ham Qur’oni Karim, hadislar bilan bir qatorda til va adabiyot ilmini yaxshi o‘zlashtirgan, o‘z davrining ma’rifatparvar ziyolisi, ilmli inson bo‘lgan. U kishi o‘z xonadonida ilmtalablarga turkiy, arab, fors tillarida o‘qish va yozishni o‘rgatgan. Onasi Sobiraxon otin esa mahalladagi ko‘plab ayollarning savodini chiqargan.

Tarixiy badia janrida asar yaratish oson ish emas. Mazkur janr ijodkordan o‘zi qalamga olayotgan davr muhitini yaxshi bilish bilan birga, voqealar bayonini silsilasini jozibali ifodalash mahoratini ham talab qiladi. Bu nihoyatda og‘ir va ko‘p zahmat talab qiladigan jarayondir. Muallif ana shu talablarni his qilgan holda boy manbalarga tayangan holda badiiy ta’sirchan asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Taraqqiyparvar jadidning o‘g‘li Iskandar Otaxo‘jayev dadasi haqidagi xotiralarni, tahlikali bolalik yillarini shunday eslaydi:

“Dadam kitobga mehr qo‘yishimizga sababchi bo‘lgan. Ular bilan faxrlanaman. Mash’um siyosat tufayli nafaqat dadam, balki butun oilamiz doim ta’qibda yashagan. Hatto dadamning o‘z og‘izlaridan bir necha marotaba kech kirib, maktabdan qaytayotganida askarlar ularga qarata o‘q uzganini, Alloh asrab, shikast yetmaganini eshitganmiz. Ular qish tunlarida bizni sandal atrofiga o‘tqazib, tarixiy kitoblar o‘qib berardilar. Biz hech narsani, hatto o‘qilgan asarlar nomini ham ko‘chaga chiqib aytolmasdik. Rahmatli dadam gapimizni o‘ylab gapirishimizni tayinlardi. Doim bir otameros so‘zni – yurtimizni mustamlakachilikdan, zulmat va zalolatdan faqatgina ilm qutqarishini ta’kidlardi. Ular butun umr vatanimiz ozod va erkin bo‘lishini orzu qilib yashadi”.

Kitobdan Ismoilxo‘ja Otaxo‘jayevning bolaligidan to umrining so‘nggi kunlarigacha bo‘lgan davr, u faoliyat olib borgan barcha maktablar, mashaqqatli va sargardon hayot yo‘li haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

Umid qilamizki, bu kabi kitoblar millat fidoyilarini yanada yaqindan tanishimizga, ularning xotirasini abadiylashtirishga xizmat qiladi.

Muyassar IBROHIMOVA

UYG‘OQ XOTIRA

Odam odamning ko‘ngliga yaqin bo‘lsa, bir-birining diydorini, suhbatini sog‘inadi, bunday ichkin tuyg‘u samimiy va chin-haqqoniy bo‘ladi. Eng muhimi, ko‘ngildoshlik biror mahalla, makon yoki zamonni ham, geografik hududni ham tanlamaydi. A’zam O‘ktamning chin do‘stlaridan biri chiroqchilik, ikkinchisi ishtixonlik edi. Garchand “Bitta do‘stim yo‘q mening, oh, Shu bo‘ldimi taqdirim?” deb yozgan bo‘lsa-da, shoir ikkita jonajon do‘st topgan edi. Odamning havasi kelardi ularning inoq yurishlariga. Uch og‘ayni haqiqiy do‘stlar edi. Ishtixonlik shoir do‘sti ba’zan tirikchilik ko‘yida, halol rizq ilinjida g‘ishtdan devor ko‘tarar, loy tepib paxsa urardi.



SHE’RIYATNING O‘KTAM OVOZI

A’zam O‘ktamga hamyurt bir tanishi shu do‘stini qattiq ishlatadi. Biroq og‘ir jismoniy mehnatining haqini tugal bermay izza qiladi. A’zam O‘ktam adolatparvar, haqgo‘y emasmi, haqiqat va to‘g‘rilik himoyasi uchun maydonga otlangan musulmon askaridek shitob bilan shartta o‘sha hamyurtining oldiga bostirib boradi. Muammoni chikka-pukkasiga jiddiy muhokama qiladi, mardona hal etadi. Do‘sti hali shu kungacha quvonadi. A’zam O‘ktam o‘zidan biror narsa ketsa ham, do‘stlari uchun jonini tikadigan jondo‘st inson edi. A’zam aka rahmatlik bo‘lib ketgandan keyin bir qurdoshimiz uning shu ajib fazilatini qayta-qayta so‘zlar va bir voqeani esga olardi. A’zam aka do‘stga sodiq edi, diliga o‘tirgan kimsani qattiq hurmat qilardi. Yo‘lovchi ulovga puli yetmayroq turgan haligi birodariga cho‘ntagidagi oxirgi sariq chaqasigacha berib, uni yengil avtomashinaga o‘tqizib, o‘zi bir necha chaqirim uyiga poy-u piyoda ketadi. Holbuki, uning uyi ham haligi do‘stining uyidan yaqin emasdi. Yo‘lida pastkashlarga duch kelganda mardlarni, haqgo‘ylarni, iymoni baland odamlarni sog‘inadi kishi. Ayniqsa, ular ziyoli bo‘lsa, olim yo A’zam akadek shoir bo‘lsa, diydor sog‘inchi karrasiga osharkan.

A’zam O‘ktam o‘zidan bir dasta go‘zal she’rlar qoldirib ketdi. Uning she’rlari o‘qilganda shoirning tirik mahalidagi fayzli suhbatlari rostdan qayta tiriladi. Yurakdagi sog‘inch chanqog‘i ana shu she’r buloqlaridan bahra oladi. Men bugun A’zam O‘ktam bilan do‘st edim, xuddi aka-ukadek yaqin edim, har vaqt birga tushlik qilardik yoki biz doimiy hamsafar edik, tarzidagi gaplarni yozsam, ommaviy xotirachilarning insholaridan farqi bo‘lmay qoladi. Barcha qatori “men”-“men”lik xastaligiga chalingan va birov bilib o‘tiribdimi, degan bema’ni o‘yda hech qisinmay-netmay allanimalarnidir to‘qib tashlagan bo‘laman. Ko‘p gaplashganmiz, to‘g‘ri. Ba’zan toshhovuzlik Farhod degan kursdoshidan so‘z ochardi. Bizdan 5-6 yosh ulug‘ bo‘lgani bois, har qanday suhbatlarda A’zam akani eshitar edik. Gaplarida o‘zi aytganidek ichi yig‘lab, tashqarisidan kulardi. Bu kulgining hech ham shodlik-quvonch kulgisidek aks sado berganiga deyarlik guvoh bo‘lmaganmiz. Hamisha kulardi, bu alamli, o‘kinchli, pichingli kulgi edi. Odam bir zamonlar yonida yurgan shunday a’zamlarni sog‘inar ekan, shunday o‘ktamlarni sog‘inar ekan.

* * *

A’zam O‘ktamning “Taraddud” she’riy kitobini o‘qigan davrimizning ulkan ulamosi shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘z qarashlarini, aynan shoirning ko‘nglini quvontirgan fikrlarini A’zam aka tirik mahalida bayon qilgan edi. Rahmatli shayx hazratlari bu yo‘lda ham barchaga o‘rnak bo‘lib ketdi. Hazratning maqolasini qayta o‘qidim. “Hammaga ma’lumki, bizning yurtimiz Movarounnahr – Turkiston butun dunyo she’riyatida o‘ziga xos o‘rin tutgan buyuk shoirlari bilan faxrlansa arziydigan, jahon xalqlari she’riyat xazinasiga o‘zining oltin sahifalarini, oltin baytlarini boshini baland ko‘targan holda taqdim etgan bir yurtdir. Albatta, ana shu maqtovga sazovor she’riyat, she’riy asarlar, shoirlar, ularning faoliyati, saviyasi, hamma-hammasi shu diyorning qadimdan muqaddas dini bo‘lib kelayotgan islom bilan chambarchas bog‘liq ekani ham hech kimga sir emas... Yana bir haqiqat-kim, shunday insonparvar, ma’rifatparvar va oliy insoniy qadriyatlarni madh etgan va o‘z o‘rinlarini ajoyib bir shaklda tutgan shoirlarimiz bilan birga, manfaat shoirlari, ba’zi shaxslarning maddohlari ham bo‘lgan. Lekin o‘sha shoirlar ham, ularning she’rlari ham tezda unutilgan. Chunki ular xalq uchun emas, haq uchun emas, haqiqat uchun emas, boshqa narsa uchun she’r aytgan edilar...”

Shayx hazratlarining adabiyotimiz uzoq tarixi va yaqin o‘tmishiga doir bunday haqiqatlari, teran nazarlari, so‘z kuchi va manfaati, gunoh va savoblari haqidagi tiniq fikrlari hamon meni o‘ylantiradi. Asil adabiyot tahlili uchun dasturiy qiymat kasb etadigan fikrlar bular. Ko‘pchilik adabiyotshunoslar sukut saqlagan bir pallada A’zam O‘ktam she’rlari qadrini juda o‘rinli, munosib baholagan va uning she’riyatidagi iymon taftini birinchi bo‘lib, his qilib bayon etgan zot ham shayx hazratlari edi: “Bu she’rlar kimnidir o‘ziga qaratish uchun aytilgan emas. Yoki keskin gaplarni gapirib o‘zini ko‘rsatish uchun emas. Balki butun vujudga singgan, yurakning to‘ridan samimiyat bilan chiqqan bir hazin ohangdir...”

A’zam O‘ktamning she’rlari orasida “Bir kun” va “Bir tun” sarlavhali ikkita uzun, biri boshqasini to‘ldiradigan egizak she’r bor. Shoirning ichi, o‘yi, iztiroblari, atrof-muhitga, yor-u birodarlariga, “sen” orqali “men”iga, munosabati bayonidir ular. Ishlaridan ko‘ngli to‘lmagan, norizo kayfiyatli, ammo mezonlari e’tiqodiga mos odam dilining sharhi.

O‘, bular odammi?
Ayanch naqadar –
Bu nojins to‘daning qolmagan sharmi.
“Kofirga o‘lim!” – deb
Tig‘ tortsang agar
Qirilib ketardi elingning yarmi.

Savod chala, ibodat chala, ishonch – omonat, suhbatlar g‘iybat, har ishda aldov, xiyonat, dushman kim, oshno kim – bilib bo‘lmaydi. She’rda shularni o‘ylagan bezovta odamning bir kuni “sen”ga – ikkinchi shaxsga yo‘naltirib beriladi. Nurli yo‘l, umrning saodatli tuganchiga oson yetib bo‘lmaydi. Buning uchun “O‘zingdan kerakdir o‘zingga hujum, O‘zingga kerakdir o‘zdan himoya”. O‘zni anglash saboqlarini eslatadi. Demak, odam ehtiyot bo‘lishi, beparvo bo‘lmasligi lozim.

“Bir tun” yuqoridagi she’rga mohiyatan o‘xshaydi. Bunda hodisa va tuyg‘ular shoirning o‘ziga juda yaqinlashadi va “men”idan o‘tkizib bayon qilinadi. A’zam O‘ktamning bu she’ri o‘zlikka nazar, o‘zini taftish etish, nafsiga tanbehlar, shafqatsiz oshkora iqroriga ko‘ra dunyo adabiyotidagi eng nodir “iqrornoma”lardan aslo kam emas. Bunda bolalikning beg‘uborligi, yoshlik g‘ayratlari, ota-onaga, farzandlar va uzoq-yaqin tanishlarga munosabatlar tafakkur elagidan o‘tkaziladi.

Yomon tushdim. Qattiq adashdim yana –
Ulug‘ yo‘lda topdim pastkash hamrohlar.
“Ulug‘ zot qulimiz”, derlar-u biroq
Nafs yo boshlig‘iga dastyordir bular.

Shoirning lirik qahramoni o‘zi uchragan to‘dani tark etolmay qiynaladi. “Shartta ketay desam dushmanmas bular, Ketmay desam biroq – do‘stim ham emas”. Kunlaridan hafsalasi pir bo‘lar ekan, o‘yga tolaveradi. taskin izlaydi. Boshqalardan bezib qolgan – taskinga asos yo‘q. So‘ngra asta o‘ziga boqadi. “Men o‘zim yomonman, yo‘q mendan yomon” – o‘zini yomonlaydi. Buyuk g‘amxo‘r Yaratguvchiga yukinadi.

A’zam O‘ktam shaxsiyati hamisha Buvayda adabiy muhiti markazida turadi. Buvaydada ustozlari, yaqinlari qatori bir qancha shogirdlari ham bor edi. A’zam O‘ktamning “Qirqinchi bahor” nomli ixcham to‘plami mana shunday ixcham, bolig‘ va fasih she’rlardan tarkib topgan edi:

Valloh, yetdi mening ham galim,
Shart guvranib o‘rnimdan turdim:
Ketmay turib qarg‘alar hali,
Qaldirg‘ochlar kelganin ko‘rdim!

Buvaydalik shoir Odil Og‘a bir she’riga shu kitobcha nomiga uyqash qilib “Qirqinchi qish” deya sarlavha qo‘yibdi va uni ustozi A’zam O‘ktamga bag‘ishlabdi. Qirq yoshga kirgan odamning o‘ylari, sarhisoblari, iziga qarashi, o‘zini taftish qilishlari. Ammo oxirgi band boshqacha – odilona xulosa:

Ko‘nglimni hech kimga ko‘rsatmagayman,
U – muzlik ostida mavjlangan anhor.
Yana yuzta qishni yengishga shayman,
Menga kuch beradi qirqinchi bahor!

Odil Og‘a bu shiddatli she’riy dil izhorini aynan qirq yoshida yozdi. Qirqinchi bahori va undan keyingi kunlari barakali bo‘ldi. Qirqinchi bahoridan kuch olgan Odil shoir elliginchi bahorida “Olisdan ovoz” degan she’r kitobini nashr ettirdi... Ba’zan she’rlarida kuzatiladigan bir sifat – haqiqatni shartta yo pichingli aytish A’zam akadan olingan saboqdir balki. Odil Og‘aning “Tavsif”i, ya’ni ustozini ta’riflagan she’ri “She’riyatning hayqiriq ovozi – A’zam O‘ktam, Jasoratdan yo‘nilgan ham sozi – A’zam O‘ktam”, degan bayti bilan boshlanadi.

“Qo‘qonshamol kuyiga qo‘shiq aytar yulg‘unlar,
Buvaydaning yuz yillik bayozi –
A’zam O‘ktam...”

Hali buvaydaliklar o‘ktam yurakli bu insonni, toza iymonli ko‘nglini she’rga solgan a’zam shoirni ko‘p eslashadi. Chunki Buvayda adabiy muhitining sardori u. A’zam O‘ktamning adabiy shaxsiyati, insoniyligi, to‘g‘riligi, halolligi zamonaviy o‘zbek she’riyatida, xususan, o‘ziga tengqur adabiy avlod ichida yorqin yulduz kabi chaqnab ko‘zga tashlanadi.

Haqiqatni aytmasa, A’zam O‘ktamning “ichi yonib” ketadi, kerak bo‘lsa dushmaniga sherday tashlanadi va yanchadi ham xumordan chiqib. Chunki shoir e’tirof etadiki:

Turaverar kerib ko‘kragin,
A’zam O‘ktam o‘lar – egilsa...
Chip-e, bo‘lsang kimning ko‘ppagi,
Pisht-e, kimning mushugi bo‘lsang!

Yana bir she’rida o‘ziga o‘zi dalda beradi; iymon nuridan, elning yoniq chirog‘idan gap ochadi va: “Ko‘nmagil hali o‘chmoqqa, o‘r bo‘l, ey, A’zam O‘ktam”, deydi. Shoirning bunday umruzoq she’rlari to‘g‘rilik va jasoratdan, o‘rlik va hurlikdan, mardlik va oriyatdan – insoniylik qadri va yuksak rutbasidan saboq beradi.

A’zam O‘ktamni sog‘inganda ustozlari, do‘stlari va shogirdlarining dil so‘zlari, xotiralari, e’tiroflari, bag‘ishlov she’rlari yodga keladi. Iste’dodli shoir Iqbol Mirzoning A’zam O‘ktamga bag‘ishlangan “Qo‘qon shamoli” she’rida:

Buyuk imtihon bu! Buyuk sinov bu!
Borni bor, yo‘qni yo‘q qilib berguvchi.
Boshingga zo‘r savdo tushmasdan burun
Kimning kimligini bilib berguvchi!


– degan misralar bor.

Zotan, so‘zning shamoldek vazifasi ham bor ekan, shoir A’zam O‘ktam ham bamisoli Qo‘qon shamolidek bu olamda mudroq odamlar ruhini uyg‘otuvchi so‘z aytib ketdi.

Bahodir KARIM,
professor

MILLAT FIDOYILARI

IBRAT
DOMLANING IBRATI



Davlatimiz rahbari 2017-yil 7-iyul kuni Namangan viloyatiga tashrifi chog‘ida o‘z davrining yetakchi ziyolilaridan biri Is’hoqxon To‘ra haqida to‘xtalib, bu atoqli ma’rifatparvar ajdodimiz o‘ziga Ibrat taxallusini bejiz tanlamagani, uning el-yurt taraqqiyoti yo‘lidagi fidokorona hayoti nafaqat o‘z davrida, balki bugun ham barchamiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo‘lib qolayotganini alohida ta’kidlagan edi. Shuningdek, o‘shanda jadid bobomizga atab zamonaviy bog‘ yaratish, yodgorlik majmuasi va “Ibrat maktabi”ni tashkil qilish tashabbusini ilgari surgan edi. Ushbu taklif jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, Ibrat nomidagi bog‘ va uning muzeyi yaratildi.

“Is’hoqxon To‘ra 1861-yili To‘raqo‘rg‘on dahasining Sayram mahallasida tug‘ilgan. Hibsga olingan paytdagi ijtimoiy ahvoli: mulkdor (o‘z shaxsiy uyiga (!), bitta sigir (!) va bitta otga ega (!), arava, 16 tanob yeri bor. (Hayratlanarlisi, yashash uchun eng zarur mol-ashyo ham unga burjuy-jinoyatchi yorlig‘ini yopishtirishga dalil bo‘lgan). Millati o‘zbek, SSSR fuqarosi, partiyasiz, oliy ma’lumotli, madrasani bitirgan. Revmatizm bilan og‘rigan. Oila a’zolari: o‘g‘li Abbosxon 57 yosh (mashg‘uloti aniq emas), Vaqqosxon 35 (kolxozchi), Fayozxon 31 (dehqon), Rotibxon 7 yoshda. Qizlari – Zarifaxon 18, Tursunxon 16, Apinaxon 13 yoshda”. Bu anketa Is’hoqxon To‘raning o‘zi tomonidan imzolangan.

1937-yil fevralida Shahrixon (Stalino qishlog‘i) rayon ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i davlat xavfsizligi leytenanti Damin-Zubov (Pavel Vasilyevich – R.Sh) o‘z odamlari bilan bir kunning o‘zida Is’hoqxon To‘ra va uning o‘g‘li Abbosxon To‘rani hibsga olib, uy xo‘jaligida tintuv o‘tkazadi.

Abbosxon To‘ra dastlabki tergovda 1929-yilgacha mulksiz bo‘lgani, ijtimoiy holati xizmatchi ekani, kelib chiqishi o‘rtahol dehqon ekanligi, millati o‘zbekligi, qishloq xo‘jaligi boshlig‘i bo‘lgani, 1930-yili quloqqa tortilgach, Shahrixon qishloq sovetiga qarashli Tumor qishlog‘iga kelib yashay boshlagani, qishloq imomi ekani, o‘zi va oila a’zolari kolxozga a’zo emasligini aytadi. Bayonnomada u Tumor qishlog‘ida ruhoniylarning maxfiy yig‘ilishida qatnashgani, o‘zga mamlakatlarning Sovet hokimiyatiga qarshi urush ochishi muqarrarligi haqida mag‘lubiyatchilik targ‘ibotini olib borgani, urush boshlanganida Sovet hokimiyatiga qarshi kurashish maqsadida aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibotda gumonlanib, bu ishga boshqalarni ham da’vat etgani ko‘rsatilib, Andijon turmasida hibsda saqlash shaklidagi ehtiyot chorasi o‘z kuchida qoldirilganligi qayd etilgan. Mahbus uni imzolab tasdiqlagan. Tergovchi qiynoqlar vositasida Abbosxon To‘radan otasi Is’hoqxon To‘raning “aksilinqilobiy” xarakterdagi faoliyati to‘g‘risida ma’lumot olishga erishadi. Oqibatda Is’hoqxon To‘ra ham hibsga olinib, Andijon turmasiga tashlanadi. Shuningdek, mazkur tergov jarayonida Ubaydulla Maxsum Otaboy A’lamov, Jabborxon Sultonxonov, Umarali Jumaboyev, Dehqonboy So‘fi Do‘smatov, Akbarali Niyozov, Mo‘tabarxon Sultonxonovning “aksilinqilobiy” faoliyati haqida ham ma’lumotlar to‘plangan, shunga ko‘ra ular hibsga olinib, tergov qilinadi va qiynoqlarga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi xizmati arxivida Damin-Zubov 1937-yil 8-fevral kuni Is’hoqxon To‘ra Junaydullayevga nisbatan ehtiyot chorasini belgilash uchun davlat xavfsizligi katta leytenanti Lisisinga taqdim etgan hujjat saqlanib qolgan. Uni aynan keltiramiz: *“Andijon shahri. 20-fevral kuni O‘zSSR NKVD Ma’muriy xizmat boshlig‘i, davlat xavfsizligi leytenanti Lisisin, davlat xavfsizligi serjanti Derevyanchenko Is’hoqxon To‘ra Junaydullayevni – 1861-yili To‘raqo‘rg‘on rayonida tug‘ilganini qayd etadi. Uning millati o‘zbek, SSSR fuqarosi, ma’lumoti oliy, arab, fors, turk, afg‘on, hind va rus tillarini biladi. U inqilobgacha 10 yil qozilik qilgan, davlat tomonidan jazoga tortilgan. 1926-yili yer maydoni sotib olgani uchun (!) bir yil qamoq jazosiga hukm etilgan. 1936-yil avgust oyida musulmonlar ruhoniylarining maxfiy yig‘inida ishtirok etgan, unda SSSR-ning boshqa davlatlar bilan urushishi muqarrarligi muhokama etilgan va Sovet hokimiyati mag‘lub qilinishi tayinligi qayd qilingan. Bu yig‘inlarda kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borish haqida qaror qabul qilingan. Sovet hokimiyati bilan kurashish uchun aksilinqilobiy unsurlardan tashkilot tuzish maqsadida Stalino rayoni qishloq soveti Yuqori Shahrixon Tumor qishlog‘idagi ikkita kengashda ishtirok etib shaxsan o‘zi nutq so‘zlab, urushning muqarrarligini, Musulmonobod davlati tuzish fikrini aytgani tasdiqlangan. Fuqaro Is’hoqxon To‘ra Junaydullayev O‘zSSR Jinoyat kodeksining 40-moddasi, 66-moddasi 2-bandi, 67-moddasi bilan ayblanib, avvalgi ko‘rilgan chora kuchida qoldirilgan”.*



O‘zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Davlat xavfsizlik komiteti Andijon oblasti Andijon shahri bo‘yicha Boshqarmasi katta tergovchisi kapitan Lisenko imzosi bilan 1959-yil 21-avgustda berilgan ma’lumotnomada Andijon turmasidagi Junaydullayev Is’hoqxon ishi yuzasidan uning o‘limi sababi haqida hech qanday ma’lumot yo‘qligi aytilgan. Andijon shahridagi 4-sonli turma arxivida Junaydullayevning hisob kartochkasida u 1937-yil 19-iyunda vafot etgani qayd etilgan. Aslida esa Ibrat domlaning farzandi Rotibxonning shahodat berishicha, O‘zNKVD Andijon sektori bo‘limining sobiq boshlig‘i Makarevich so‘roq jarayonida “aybini” bo‘yniga oluvchi ko‘rsatma, ma’lumot olish va tergov materiallarini soxtalashtirish maqsadida keksa mahbusga mislsiz azob bergan. Inson zoti dosh berolmaydigan darajada jismoniy qiynoqqa solingan 76 yoshli Is’hoqxon To‘ra bu azoblarga bardosh berolmay, turma kamerasida may oyida, demak, arxivda qayd etilganidan bir oy oldin – dastlabki tergov jarayonida yurak xurujidan vafot etgan.

Shu tariqa ma’rifatchi olim, jadidlik harakatining peshqadam vakili, shoir, tilshunos, yangicha usulda maktab ochgan, o‘quv dasturiga yangiliklar kiritgan, o‘z qishlog‘ida “Matbaai Is’hoqiya” nomli bosmaxona tashkil etgan, Turkiya, Bolgariya, Gretsiya, Italiya, Afg‘oniston, Saudiya Arabistoni, Hindiston davlatlarida va ularning yirik shaharlarida ilmiy izlanishlar olib borib, arab, fors, ingliz, hind va urdu tillarini o‘rgangan, ensiklopedik ma’lumot sohibi Is’hoqxon To‘ra Junaydullaxo‘ja o‘g‘li Ibrat Andijondagi qatlgohga tunda yashirin ravishda janozasiz, kafansiz ko‘milgan.

Shu o‘rinda Ibrat domlaning o‘g‘li Rotibxonning 1959-yil 28-mayda O‘zbekiston SSR Oliy Sovetiga yo‘llagan arizasini keltiramiz: *“Mening otam, “Ibrat”, “Anisiy” taxallusi bilan asarlar yozgan progressiv olim Is’hoq Junaydullayev 1862-yilda To‘raqo‘rg‘onda o‘qimishli xonadonda tug‘ilib, yoshlik davrida To‘raqo‘rg‘on, Namangan va Buxoroda bilim olgan. O‘z hayotida bilim qidirgan otam Rossiyaning ko‘p shaharlarida, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Hindiston hamda Xitoy davlatlarida bo‘lgan. Rus tilini, o‘qish, yozish va tarjimalar qilishni mukammal bilgan. Kezgan mamlakatlarining tili va madaniyatini o‘rganib, ular haqida yozgan asarlari hozirgacha saqlangan. “Jomul xutid” (Xatlar yig‘indisi), “Farg‘ona tarixi”, “Madaniyatlar tarixi”, “Yetti tilda lug‘at” va boshqa asarlari ma’lumdir. Bu manbalar Toshkentda Sharq qo‘lyozmalari institutida va Yozuvchilar soyuzining Namangan oblast bo‘limida saqlanmoqda.*

Otam bilim tarqatuvchigina bo‘lib qolmay, ma’rifatparvar, madaniyatga undovchi shaxs bo‘lgan. Revolyutsiyadan ilgari Namanganda “Is’hoqiya” nomli tipo-litografiya tashkil qilib, o‘z asarlari va xalqni ma’rifatga chaqiruvchi boshqa asarlarni bosib turganki, hozirda Namangandagi “Udarnik” bosmaxonasi sobiq “Is’hoqiya” litografiyasi bazasida tashkil bo‘lgan.

Otam 1924-yilgacha xalq sudligi lavozimida ishlab kelganligi haqida zamondoshlari ma’lumot beradi. Keyinchalik qarilik tufayli ishdan qolgan.

1937-yilning fevral oyida otamni to‘satdan qamoqqa olishgan va 75 yoshda may oyida Andijon turmasida vafot etgan. Men 1930-yilda tug‘ilib otamni qamalish sababini bilolmaganman. Ushbu arizam bilan otamni qamalishi sababini va uning so‘nggi vaqtda oqlanganmi-yo‘qmi, shu haqida ma’lumot berib, meni o‘z biografiyamda otam haqida to‘laroq yozishimga imkon berishingizni so‘rayman”.

Shu ariza bo‘yicha O‘zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Davlat xavfsizligi komitetining Andijon oblasti bo‘yicha katta tergovchisi kapitan Lisenko tomonidan 1959-yil 5-sentyabrda arxiv tergov ishi bo‘yicha xulosa tayyorlangan. Xulosa Davlat xavfsizligi komitetining Andijon oblasti bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i A.Sichev tomonidan tasdiqlangan. Unda bu ayblanuvchilar asossiz ravishda hibsga olingani va sud qilinib, jazoga tortilgani ko‘rsatilgan. Boshqacha aytganda, ular reabilitatsiya qilingan. Ammo bu “oqlov” xo‘jako‘rsinga bo‘lib, na keng ommaga oshkor qilingan, na ma’rifatparvar Ibrat domlaning faoliyatiga adolatli baho berilgan, na haqiqiy jinoyatchilar jazolangan. Aksincha, o‘z vaqtida Ibrat domlani hibsga olib, tergov qilgan, unga nisbatan nohaq ayblov xulosasini tayyorlagan chekist Damin-Zubov o‘zining razil ishlari uchun, qatag‘on kampaniyasida faollik ko‘rsatgani sovetlar tomonidan qadrlanib, hatto o‘tgan asrning 70-yillarida Lenin ordeni bilan taqdirlangan. Bu razil kimsa Andijon viloyatida turli tantanali majlislar hay’atida g‘urur bilan o‘tirganiga shaxsan o‘zimiz ham guvoh bo‘lganmiz. Bunday adolatsizliklar sovet rejimi sharoitida odatiy tus olganiga hamma ko‘nikkan edi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor



XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Mo‘min Sulaymonovich Xo‘jayev – 1898-yili Tojikiston SSR Xo‘jand shahrida tug‘ilgan. Sobiq quloq, savdogar. VKP(b)ning sobiq a’zosi. “Milliy ittihod”, “Milliy istiqlol” va “Ittihodi Sharq” tashkilotlari a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan paytda O‘zbeksavdo direktori bo‘lgan. 1918-yili “Milliy ittihod” tashkiloti topshirig‘i bilan taniqli sovet xodimlari ustidan terrorchilik aktini amalga oshirganlikda va bosmachilikka rahbarlik qilganlikda, aksilinqilobiy ishlar olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli mol-mulk musodara qilingan.

Majid Qodirov (Abdulmajid Qodiriy) – 1886-yil 2-oktyabrda Toshkent shahri, Qoryog‘di mahallasida tug‘ilgan. Toshkentdagi eski maktabni bitirgan. So‘ngra madrasada o‘qigan. 1906-yildan rus-tuzem maktabida matematika o‘qituvchisi, 1917-yilgi inqilobga qadar Toshkent shahridagi o‘rta o‘quv yurtlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi, 1918-yildan 1921-yilgacha Toshkentda jadidlar tomonidan tashkil etilgan “Turon” nomli 6-maktabni boshqargan. 1918-yildan kommunistik partiya a’zosi. 1921-yildan Turkiston davlat universiteti eski shahar ishchi fakultetida o‘zbek tilidan dars bergan. 1923-yili alohida xizmatlari uchun “Mehnat qahramoni” unvoni bilan taqdirlangan. 1928-yildan O‘rta Osiyo davlat universiteti qoshidagi “Fizika kabineti”ni boshqargan. 1929-yili Kommunistik partiya a’zoligidan mahrum etilgan. Egallab turgan barcha lavozimlaridan bo‘shatilgan. U 1930-yildan so‘ng maktablarda o‘qituvchilik qilgan. 1937-yili NKVD xodimlari tomonidan qamoqqa olingan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi qarori bilan otuvga hukm qilingan.

Salimxon Tillaxonov – 1898-yili Toshkentda tug‘ilgan. O‘zbekistonda “Milliy istiqlol” harakati namoyandalaridan biri, “Milliy ittihod” tashkiloti Sirdaryo viloyati rahbari bo‘lgan. 1914–1916-yillarda boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchi, “Turon” truppasida aktyor bo‘lgan. 1916-1917-yillarda Boku pedagogika institutida o‘qigan. Toshkent eski shahar maorif bo‘limi mudiri vazifasida ishlagan. Salimxon Tillaxonov O‘rta Osiyo institutida ham o‘qigan va o‘qituvchilik qilgan (1924–1925). Toshkent okrug moliya kursini tashkil etib, unga rahbarlik qilgan (1925–1929). “Moliya fani asoslari” asarini yozgan. 1929-yil noyabr oyida Davlat siyosiy boshqarmasi (GPU) tomonidan qamoqqa olingan. 1931-yil 23-iyunda Moskva shahrida otib tashlangan. 1989-yil 24-martda oqlangan.

Mirsoat Mullaboyev – 1890-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. “Dushmanlarni himoya qilgani” tufayli sudlangan. VKP(b)dan o‘chirilgan, mahalliy xo‘jalik bo‘limi ishini izdan chiqargan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Millatchilar bilan avvaldan aloqa o‘rnatgani, sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik kayfiyatida bo‘lgani, aholi orasida norozilik keltirib chiqarganlikda ayblangan.

Ubaydulla qori Erg‘oziyev – 1892-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Yirik ruhoniylar oilasidan, sobiq savdogar. 1932-yil 7-avgustda 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida doimiy ravishda targ‘ibot olib borganlikda, Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qo‘zg‘olon tayyorlashda bosmachilarga yordam berganlikda ayblangan.

Nuriddin Muhsimov – 1906-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi, sobiq quloq, hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. 1937-yil 25-oktyabrda 4477-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm etilgan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, xalq dohiysi sha’niga tuhmat fikrlar bildirganlikda ayblangan.

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

DOLZARB MAVZU

EHTIYOT BO‘LING: QALBAKI DORILAR!



Yaqinda bir dori qidirib, oyog‘imda oyoq qolmadi. Shahar ko‘chalari bo‘ylab qator tizilgan dorixonalarning mo‘lligi-yu, ulardagi bir-biridan chiroyli qilib qadoqlangan dorilarning turli-tumanligidan boshim aylanib ketdi. Uzoq izlanishlardan so‘ng va nihoyat dori ham topildi. Ammo... ming mashaqqat va mo‘maygina pul evaziga sotib olingan dori qalbaki bo‘lib chiqdi. Bu holga birinchi marta duch kelganim bois real vaziyat haqida kengroq ma’lumotga ega emas edim. Keyin esa bu mavzu haqida izlanishga tushib ketdim...

Dunyoda qaysidir kasallik avj ola boshlasa yoki uning pandemiya darajasiga chiqishi kuzatilsa, dori vositalarining taqchilligi, tibbiy buyumlar narxining oshishi, eng yomoni esa qalbaki va kontrafakt tibbiy mahsulotlarning ko‘payishi ko‘zga tashlanadi. Natijada esa global sog‘liqni saqlash inqirozi kuchayib boraveradi. Bu holat hali yodimizdan chiqib ulgurmagan COVID-19 pandemiyasi davrida yaqqol namoyon bo‘lgan edi.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, past va o‘rta daromadli mamlakatlarda muomalada bo‘lgan har o‘nta tibbiy mahsulotlardan bittasi sifatsiz yoki soxtalashtirilgan hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, bemorlar tomonidan kasalliklarni davolash yoki ularning oldini olish uchun samara bermaydigan dori-darmonlar qabul qilishini ifodalaydi. JSST hisob-kitoblariga ko‘ra, qalbaki va kontrafakt dorilar aholining eng zaif qatlamlariga kuchli ta’sir qiladi va bu jiddiy kasallik yoki o‘lim holati bilan yakunlanishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, qalbaki va kontrafakt dori vositalar hamda tibbiy buyumlarning tarqalishi nafaqat iste’molchilarga, balki ishlab chiqaruvchilarning faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, mahsulotlarga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi. Natijada iqtisodiy zarar orqali oddiy fuqaro kabi davlatning ham sog‘liqni saqlash tizimiga yo‘naltirgan umumiy xarajatlari karrasiga oshadi. Aholi ishonchi yo‘qotilib, tibbiyot mutaxassislari, dasturlari va sog‘liqni saqlash tizimiga bo‘lgan ixlosiga putur yetadi. Nojo‘ya ta’sirlar jiddiy oqibatlarga olib keladi, kelajakda kasallikni davolash yoki oldini olishning imkoniyati yo‘qolishi tufayli o‘lim, xavfli kasallanish yoki kasallikning keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Qalbaki dori-darmonlar savdosi qora bozor va noqonuniy tarmoqlarni rivojlantiradi, bu esa keng ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarga olib kelib, qora bozorni legallashtirishga zamin yaratishi mumkin.

Farmatsevtika xavfsizligi instituti (PSI) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, dunyoda qalbaki va kontrafakt dori vositalarining muomalasi har yili taxminan 10 foizga o‘sib bormoqda. Mutaxassislarning fikricha, bu o‘sishga turtki bo‘layotgan omillardan biri, dori vositalarining veb-saytlar orqali nazoratsiz savdosi rivojlanishidir. JSST hisob-kitoblariga ko‘ra, internetda sotiladigan dori vositalarining 50 foizi qalbaki hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 2 373 turdagi dori vositalari ishlab chiqaradigan 152 ta mahalliy korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Biroq shunga qaramay, iste’mol qilinadigan farmatsevtika mahsulotlari hajmining asosiy qismi – qariyb 1,3 milliard dollarlik tovar (yoki 82 foizi) chetdan keltiriladi.

O‘z navbatida, dori vositalarini ko‘p miqdorda import qilish sifat nazorati bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Mamlakatlar o‘rtasidagi standartlarning nomuvofiqligi, import qilinadigan tibbiy mahsulotlar qabul qiluvchi davlatning sifat nazorati talablariga to‘liq javob bermasligiga olib kelmoqda.

O‘zbekistonda qalbaki va kontrafakt dori vositalarining muomalasi sog‘liqni saqlash sohasidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda aholi orasida katta talabga ega bo‘lgan dori vositalari ko‘proq soxtalashtirilmoqda.

Qalbaki va kontrafakt dori vositalari muomalasi bilan bog‘liq asosiy muammolardan biri bu samarali nazorat mexanizmlarining yo‘qligi va aholining qalbaki dori vositalarini sotib olish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq xavf-xatarlardan yetarlicha xabardor emasligidir. Bu esa qalbaki va sifatsiz dori vositalarining noqonuniy aylanishiga sharoit yaratib, o‘z navbatida fuqarolar salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Sobir NORMAMATOV,
farmatsevt:

– Qalbaki va kontrafakt dori vositalari aylanmasi shu qadar rivojlanib ketyaptiki, bir qarashda soxtasini haqiqiysidan ajratib olish soha mutaxassislari uchun ham qator murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Bunday dori preparatlarining originalidan farqi faqat maxsus kimyoviy laboratoriyadagina ayon bo‘lishi mumkin. Ammo dori-darmon xaridi payti xalqimiz e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan bir nechta jihatlar ham borki, yurtdoshlarimiz bu orqali nafaqat o‘zining, balki boshqalarning ham sog‘ligini asrashga katta hissa qo‘shishi mumkin.

Xaridor aldanib qolmasligi uchun avvalo sotuvchidan dori-darmonning yuk xatini ko‘rsatishini talab qilishi zarur. Uning bu harakati qonunchilik talablariga to‘la mos keladi. Yuk xatida dori vositasining seriyasi, tartib raqami, ishlab chiqaruvchisi va ulgurji narxi ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bundan tashqari, dorixonada sotuvga ruxsat berilgan har bir dori-darmonning Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan taqdim etilgan sertifikati bo‘lishi kerak. Yuk xati va sertifikati mavjud bo‘lmagan dori-darmonlarni sotib olish va iste’mol qilishdan cheklanish zarur.

Bu ko‘rinishdagi jamoatchilik nazorati anchayin sust bo‘lgani uchun xaridorlar dori vositalarining qutisiga, tashqi ko‘rinishiga alohida e’tibor berishi kerak. Qalbaki dorilarning qutisi haqiqiysiga qaraganda xiraroq ko‘rinishda bo‘ladi. Oddiy taqqoslash bilan ham ko‘p narsani oydinlashtirish mumkin. Qalbaki deb taxmin qilingan dori vositalari haqida esa dori vositalari sifatini nazorat qiluvchi milliy organlarga xabar qilishi kerak.

Farmatsevtika sohasi butun dunyoda katta biznes ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Xalqimiz topib aytgan: pul bor joyda nafs bor, shayton bor. Korrupsiya, dori vositalarini ro‘yxatga olish va sotishni tasdiqlash jarayonlarida shaffoflikning yo‘qligi oxirgi paytlar oddiy fuqarolar uchun juda jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Hindistonning “Marion Biotech” kompaniyasi dori vositalarini qabul qilganidan so‘ng O‘zbekistonda 65 nafar bola vafot etdi. Yana qanchadan qancha norasidalar og‘ir kasalliklarga chalindi. Butun xalqimiz yuragini jarohatlagan bu mudhish hodisa hali odamlar yodidan chiqqani yo‘q, albatta. Buning sababchisi bo‘lgan insonlar hayotining qanchadir qismini panjara ortida o‘tkazar, ammo begunoh farzandidan ayrilgan ota-onalar-chi, ularning holi ne kechyapti hozir?

Ushbu fojiali voqea ham dori vositalarining sifati va xavfsizligi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish muhimligini, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish, dori vositalari sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish va qalbaki dori vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq xavf-xatarlar to‘g‘risida aholi xabardorligini oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Muhammad ISMATOV,
dorixona ishchisi:

– Yurtdoshlarimizning aksar vakillari biroz sodda. Ish jarayonida shunday vaziyatlar bo‘ladiki, ba’zi xaridorlar so‘ralgan dorining narxini eshitib, yoqamizdan olishgacha boradi. “Insofing bormi o‘zi? Namuncha qimmat? Bu dorini falon joydagi dorixonadan ancha arzon narxda sotib olardim”, deb jahl qilgancha chiqib ketadi. Uning qalbaki yoki kontrafakt dori vositasi bo‘lishi mumkinligini aytsang, eshitishni istamaydigan odamlar ham topiladi. Arzoniga uchish esa tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim jihatlardan biri shuki, zarur bo‘lgan dori vositalari topilmagan taqdirda, ba’zi bir insofsiz sotuvchilar tomonidan sodda va ishonuvchan xaridorlarga davolanish uchun mo‘ljallanmagan dori vositalarining taklif va tavsiya etilishi ham bemor hayotini xavf ostiga qo‘ymoqda.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi ekspertlari qalbaki va kontrafakt dori vositalari muomalasining oldini olish hamda farmatsevtika mahsulotlari sifatini nazorat qilishning zamonaviy tizimini to‘liq joriy etish maqsadida qator tavsiyalar ishlab chiqqan edi. Ana shu tavsiyalarning hayotga joriy etilishi ham tizimning anchayin tartibga tushishi uchun asos bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inson o‘z sog‘ligi uchun avvalo o‘zi javobgar ekanligini aslo unutmasligi kerak. Shuning uchun xarid qilinayotgan har bir dori-darmonning haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qilish, uni yo‘riqnomaga muvofiq iste’mol qilish, aks ta’sir ko‘rsatgan holda esa zudlik bilan shifokorga murojaat etish talab etiladi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, agar siz xarid qilayotgan dorining haqiqiy emasligiga shubhangiz bo‘lsa, hech ikkilanmay dori mahsulotlarini nazorat qiluvchi milliy markazlarga murojaat qiling. Zero, sizning bu harakatingiz boshqa bir fuqarolar sog‘ligi uchun foydali bo‘lishi mumkin. Jamiyatda jamoatchilik nazorati qanchalik kuchli bo‘lsa, uning mustahkamligi ham oshib boraveradi.

Islomjon QO‘CHQOROV,
jurnalist

ILDIRGI:

Ba’zan turli davralarda noqonuniy dori-darmon vositalarini ishlab chiqarish hududlarda ham uchrab turganini eshitib qolamiz. Yaqinda xizmat safari bilan vodiy viloyatlarida bo‘lganimda Uchko‘prik tumani va Qo‘qon shahrida ham shu kabi holatlar kuzatilayotganini o‘sha yerlik aholi vakillari kuyinib gapirgandi. Noqonuniy dori vositalarini ishlab chiqarib, odamlar, ayniqsa, norasida go‘daklar hayotini xavf ostiga qo‘yayotgan ba’zi “tadbirkor”lar shu jirkanch ishlarining kasofati avlodlariga urishidan, begunoh bemor chaqaloqlar hayot shamini va ularning ota-onalari ko‘zidagi miltillab turgan umidni so‘ndirib qo‘yishdan qo‘rqmasmikan?! Bu turdagi kimsalar balki hozircha qonuniy jazodan qutulib qolayotgandir, lekin vijdon azobidan qayerga qochib bo‘larkan...

TILBILIM

KAL PALOV



Hech zamonda palov ham kal bo‘ladimi? Bo‘lar ekan-da.

O‘smirlik yillarimizda kuz oqshomlarida paxta terimidan horib qaytgan chog‘larimizda kela solib “Nima ovqat qildingiz?” deb bergan savolimizga ba’zida onam “Palov. Lekin kal palov”, deb javob berardi.

Bunday paytlarda palovning kalligi yo ko‘rligi bilan ishimiz yo‘q edi. Palovning o‘zi bo‘lsa bo‘ldi. Biz o‘sgan qishloqlarda go‘shtsiz palovni “kal palov” deyishardi. Go‘sht degani o‘sha vaqtlarda ham ko‘p tanqis va qimmat edi. Shuning uchun onda-sonda go‘shtli palov qilishsa, osh ustida turgan ozgina etni palovning qora kesagi deyishardi. Men keyinroq qadimgi kitoblarimizda qora kesak iborasi qo‘llanganini ko‘rdim, lekin bu iboraning qaysi ma’noda ishlatilganini aniqlay olmadim.

“At-tuhfa” lug‘atida sho‘rxok ekin yerni ham kal yer deb atashgani haqida o‘qiganimda onam qilgan o‘sha kal palov esimga tushdi. Sho‘rxok yerni yana *qochur, sizliq* deyishgan. Shu lug‘atda sochi to‘kilgan kal odam kashal (käshäl) so‘zi bilan nisbatlanishi haqida aytilgan. Bundan tashqari qadimgi tilimizda taz (täz) so‘zi ham kal ma’nosini bildirgan. Ultontozdagi toz ham shu ma’noda bo‘lishi mumkin.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

NOSHIRLIKDAGI NOQISLIK

Bugun noshirni qiynayotgan muammolardan biri bu – bozordagi plagiat asarlardir. Deylik noshir biror kitobni chop etish huquqiga ega bo‘ldi va uni nashr etdi. Bu asarga talab yaxshi ekanligini bilgan ayrim uddaburon noshirlar ham xuddi shu kitobni noqonuniy tarzda nashr etib sotuvga chiqardi.



Albatta, u nashr etish huquqini olmagani uchun, kitobni chop etish unga moddiy jihatdan ancha arzonga tushadi va tabiiyki u mahsulotga ancha arzon narx qo‘yadi. Xaridor esa tabiiyki sifatsiz bo‘lsa ham kitobning ana shu plagiat nusxasini xarid qiladi. Qarabsizki, qonuniy ishlayotgan noshirning sarflagan mablag‘i ham, ko‘rishi kerak bo‘lgan foydasi ham deyarli tushga aylanadi. Eng yomoni oldinda, u holatga chora ko‘rilishini so‘rab murojaat etolmaydi, chunki uning bunga haqqi yo‘q. Yaxshi asarni chop etib topgani moddiy ziyon bo‘ladi. Xullas, nashriyotlarda bu masalada tovon puli undirish bo‘yicha huquq yo‘q. Kontrafakt mahsulotlarni chiqarganlarga esa jinoiy javobgarlik yo‘q. Zo‘r-a?!

Nigora HASANOVA,
Facebook

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 812
Lotin yozuvidagi adadi – 11 905
Media kuzatuvchilar – 19 213
Buyurtma: G – 1040.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:50
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz